

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM
VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**



**TURKIY TILLAR FAKULTETI
O‘ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI**

5111200 – o‘zbek tili va adabiyoti bakalavr ta’lim yo‘nalishi

4- „A“ kurs talabasi

**SABUROVA QUNDUZ ERKEBAY QIZINING
BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Mavzu: «UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA RASHOD NURI
GUNTEKIN HAYOTI VA IJODINI O‘RGATISH»**

Talaba:	Q. Saburova
Ilmiy rahbar:	f.f.d (PhD). H. Allambergenov
Kafedra mudiri:	f.f.n., dots. S.Matyakupov

*O‘zbek tili va O‘zbek adabiyoti kafedralari qo‘shma yig‘ilishining 2021- yil
____-_____dagi ____- bayonnoma bilan himoyaga tavsiya qilindi.*

Nukus – 2021

Davlat attestatsiya komissiyasi

QARORI:

5111200 – o‘zbek tili va adabiyoti bakalavr ta’lim yo‘nalishi 4- «A» kurs talabasi Saburova Qunduz Erkebay qizining «Umumta’lim maktablarida Rashod Nuri Guntekin hayoti va ijodini o‘rgatish» mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga «____» ball («____%») qo‘yilsin.

«____» _____ 2021- yil

DAK kotibi:

M.Ergashev

MUNDARIJA:

Kirish. Bitiruv malakaviy ishining umumiy tavsifi	4
---	---

I bob. Adabiy ta'limda Rashod Nuri Guntekin hayoti va ijodini

o'rgatish

1.1. Rashod Nuri Guntekin hayoti va ijodini o'rgatishning tarbiyaviy-axloqiy asoslari	9
1.2. Rashod Nuri Guntekin hayoti va ijodini ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanib o'rgatish	16

II bob. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida Rashod Nuri Guntekin hayoti va ijodini o'rgatishning samarali usullari

2.1. Rashod Nuri Guntekin hayoti va ijodini o'rgatishning innovatsion usullari	25
2.2. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida „Choliqushi“ romanini qiyoslab o'rgatish	41

III bob. Ta'lim bosqichlari dastur va darsliklarida mavzuning berilishi

3.1. Umumta'lim maktablari dastur va darsliklarida Rashod Nuri Guntekin hayoti va ijodining berilishi	47
3.2. Rashod Nuri Guntekin hayoti va ijodini o'rgatish bo'yicha namunaviy dars ishlanmalari	50
Xulosa	59
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	61
Ilova	63

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimizda yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'g'il-qizlarning zamonaviy bilim olishi, yuksak ma'naviyatli bo'lib ulg'ayishi uchun zarur sharoit yaratish borasidagi ishlar izchil davom ettirilmoqda. Ayni o'sha paytda ularni o'zlari o'rgangan muhitdan ajratib qo'ymaslik kerak. Bu yoshlarning ruhiyatiga, davomatiga, oxir-oqibatda ta'lim-tarbiyasiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Shu bois ta'lim jarayonining usluksizligini ta'minlash, o'quv dasturlarini takomillashtirish zarur. Bu vazifalar maktab, oila, mahalla, butun jamoatchilikka katta mas'uliyat yuklaydi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev „Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san'atimiz ham albatta bo'ladi“¹, – degan edilar.

Umumta'lim maktablarida adabiyot darslari orqali o'zbek va jahon adabiyoti vakillarining hayoti va ijodiga oid bo'lgan ma'lumotlar, ularning asarlaridan namunalar keltirilmoqda. Har bir tanishtirilayotgan badiiy asarni o'quvchi darsdan so'ng ham katta qiziqish bilan topib, uning to'liq holatini mutolaa qilishiga harakat qilmoqda. Ushbu o'rinda o'quvchining o'rganilayotgan badiiy asarni o'zlashtirishi, undan estetik zavq ola bilishi va ma'naviy oziqlanishi uchun adabiyot darslarida badiiy asarni tahlil qilish jarayoni juda muhim hisoblanadi. Ushbu jarayonni o'ta mohirlik bilan tashkil etish esa o'qituvchiga, uning qobiliyatiga va tajribaliligiga bog'liqdir.

„Adabiyot va san'atga, madaniyatga e'tibor – bu avvalo xalqimizga e'tibor, kelajagimizga e'tibor ekanini, buyuk shoirimiz Cho'lpon aytganidek, adabiyot, madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini unutishga bizning aslo haqqimiz yo'q“².

¹ Mirziyoyev Sh. M. Ijodkor ziyolilar bilan uchrashuv, 2017.

² Mirziyoyev Sh. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – Toshkent: O'zbekiston 2018. – B. 181

Respublikamiz butun dunyo mamlakatlari, shu jumladan, yaqin Sharq mamlakatlari bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatdi. Bu hamkorliklarning tobora mustahkamlanib borishi yoshlarga yangidan yangi imkoniyatlarni ochib berdi, shu bilan birga zimmamizga o'ziga xos vazifalarni yukladi. Bundan tashqari, mamlakatimizda biz yoshlarga berilayotgan katta e'tibor kelajakdagi orzularimizga erishishimizda kuchli dalda bo'lib xizmat qiladi. Mana shu haqiqatlarni nazarda tutib, Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov o'z nutqlarida shunday deb ta'kidlagan edilar: „Hozirgi paytda xorijiy va sharq tillarini o'rganish va o'rgatishga katta ahamiyat berilmoqda. Bugun jahon hamjamiyatidan o'ziga munosib o'rin egallashga intilayotgan mamlakatimiz uchun, chet ellik sheriklarimiz bilan hamjihatlikda, hamkorlikda o'z buyuk kelajagini qurayotgan xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini baholashning hojati yo'qdir“³.

Katta tarixiy yo'lni bosib o'tgan Sharq adabiyotning yuksalishi birday kechmadi. Ammo mazkur adabiyotning XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning birinchi yarmidagi davrini o'ziga xos burilish davri deb atash mumkin. Bu davr adabiyotida katta sifat o'zgarishlari ro'y berdi. Turkiy adabiyotida proza (hikoya, roman), dramaturgiya janrlarida ko'plab ajoyib asarlar yaratildi, turk poeziyasida esa bir necha adabiy maktablar yuzaga keldi. Jahon adabiyotining ta'siri hamda barcha qardosh xalqlardagi ijtimoiy taraqqiyot natijasida maydonga kelgan yangi davr adabiyotidagi so'z ustalari o'z asarlarida birinchi navbatda oddiy xalq hayotini, mamlakat oldida turgan muhim muammolarni aks ettira boshladilar. Jahon adabiyotidagi ana shunday ulug' yozuvchilarning yetakchi vakillaridan biri, bugungi kunda ta'lim o'zbek tilida olib boriladigan umumiy o'rta ta'lim maktablarida ham hayoti va ijodini o'rgatish boshlangan ajoyib turk ijodkori Rashod Nuri Guntekin hisoblanadi.

Darhaqiqat, mohir yozuvchi Rashod Nuri Guntekin ijodi butun dunyo ahlini o'zining haroratli so'zi ila hayratga sola oldi. Yozuvchining ijodi turkiy so'zlashuv tilining boyligini aks ettiruvchi asarlari bilan xarakterlanadi. Adib o'z xalqining

³ Karimov I.A. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq, 1997. – B. 8-9.

hayoti, muammolari, dard-u tashvishi, his-tuyg'ulari va e'tiqodini ona tilining soddaligi va ravshanligi orqali ifodalashi bilan ajralib turadi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Muayyan yozuvchi ijodini o'rganish masalalari tadqiqotchi va olimlar tomonidan yetarli darajada o'rganilgan bo'lib, o'zbek adabiyotshunosligi va metodikasida bu borada qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. O'zbek adabiyotshunosligida Rashod Nuri Guntekin ijodi va asarlari tahlili, ularning badiiy qimmati, yozuvchining qardosh xalqlar bilan adabiy munosabatlari masalasini D.Abdullayeva, N.Alimov, G.Boqijonova singari olimlarimiz o'z tadqiqotlarida batafsil yoritib berganlar.

Shoir va yozuvchilar hayoti, ijodini umumta'lim maktablarida o'rgatish, darslik matnlaridan to'g'ri va unumli foydalanish, uning tilsimlarini ochish, o'quvchilarning o'quv-biluv samaradorligiga erishish orqali ularni ijodiy fikrlashga o'rgatish borasida A.Zunnunov va boshqalarning Adabiyot o'qitish metodikasi („O'qituvchi“, Toshkent, 1992), Safo Matjonning „Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar“ (Toshkent, „O'qituvchi“, 1996) kabi qo'llanmalarida ancha ishlar qilingan. Bitiruv-malakaviy ishda yuqoridagi kabi har xil davr va mavzularda yaratilgan o'quv qo'llanmalar va darsliklar ham tahlilga tortildi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Bitiruv malakaviy ishi rejalari kalendar rejaga muvofiq, ilmiy rahbar bilan hamkorlikda belgilangan muddatlarda ishlab chiqilgan va ularning har biri ishning muayyan qirralarini yoritishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning maqsadi. Bitiruv-malakaviy ishida ko'zda tutilgan asosiy maqsad umumta'lim maktablarida Rashod Nuri Guntekin hayoti va ijodini o'rgatishning samarali usullari bilan tanishtira borish orqali asarning tub ma'nosini o'zlashtirishlariga erishishdan iborat. Shuningdek, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini oshirish, ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan eng qulay usullarini o'rganish kabi vazifalar yuzasidan tegishli umumlashmalarni bayon etishni maqsad qilib qo'ydik.

Tadqiqotning vazifalari. Yuqoridagi maqsadni yuzaga chiqarish uchun quyidagi vazifalar amalga oshirildi:

- tadqiqot natijalarining uslubiy ahamiyatini belgilash;
- Rashod Nuri Guntekin hayoti va ijodiy faoliyatining yoshlar tarbiyasidagi o‘rnini belgilash;
- Umumta’lim maktablarida Rashod Nuri Guntekin hayoti va ijodini o‘rgatishning samarali usullarini ishlab chiqish;
- Umumta’lim maktablari adabiyot fani o‘qituvchilari uchun namunaviy dars ishlanmalarini yaratish.

Tadqiqotning obyekti va predmeti. Bitiruv malakaviy ishda umumta’lim maktablarining o‘n birinchi sinf o‘quvchilari uchun nashr etilgan „Adabiyot“ darslik-majmualari, shuningdek, har xil davr va mavzularda yaratilgan ilmiy tadqiqotlar va o‘quv qo‘llanmalar tahlilga tortildi.

Tadqiqotning metodologik asoslari va metodlari. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlaridagi adabiyot va san’at, ma’naviyat va ma’rifat hamda ilmiy mafkura va milliy g‘oya masalalari yuzasidan ilgari surilgan nazariy fikrlar ishning metodologik asosini tashkil qiladi. Rashod Nuri Guntekinning hayoti va ijodining o‘rganilishi, badiiy mahorati xususida Dildoraxon Abdullayeva, Nurbek Alimovlarning yozuvchi mahorati haqidagi mulohazalariga hamda yozuvchi hayoti va ijodiga ham tayanildi.

Ishning ilmiy yangiligi. Bitiruv malakaviy ishda umumta’lim maktablarida Rashod Nuri Guntekin ijodini o‘rgatish borasida bir qator samarali usullar tavsiya etiladi. Jumladan, savol-topshiriqlar, ijodkorning suratlari, asarlarga doir rasmlar, xronologik uslub, namunali ko‘rsatmalar, dars ishlanmalar, interfaol metodlar, ta’limiy o‘yinlardan foydalanishning yo‘l-yo‘riqlari xususida so‘z yuritiladi.

Rashod Nuri Guntekin ijodining umumiy o‘rta ta’limda o‘rgatilishi, o‘ziga xos uslubi, mahorati va obrazlar silsilasining yoritilishi ushbu ishimizning yangiligini belgilaydi. Ishda, shuningdek, yozuvchining o‘ziga xos tasvir mahorati, asarlarining maktab o‘quvchilariga o‘rgatilishi masalalari yoritildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ishning asosiy natijalari va muhim xulosalaridan, umumiy o'rta ta'lim maktablarida dars jarayonlarini tashkil etishda, shuningdek, jahon adabiyoti, hozirgi adabiy jarayon, adabiyotshunoslik nazariyasi bo'yicha o'quv qo'llanmalar, turli metodik tavsiyanomalar yaratishda, ochiq dars va mahorat darsi mashg'ulotlarini tashkil etishda ham manba sifatida xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi. Mazkur bitiruv malakaviy ishida o'rganilgan asosiy jihat adabiyot darslarida Rashod Nuri Guntekin ijodini o'rgatishga bag'ishlangan darslarni to'g'ri tashkil etish orqali o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamol insonlar qilib tarbiyalashning ilmiy-metodik asoslari haqida so'z yuritildi. Ishda foydalanilgan asosiy metod va usullar Nukus davlat pedagogika institutining Taxiatosh tumani 3-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq pedagogik amaliyot jarayonlarida amaliyotga joriy etildi va ijobiy natijalarga erishildi.

Ishning tuzilishi va hajmi. Bitiruv ishi kirish, „Adabiy ta'limda Rashod Nuri Guntekin hayoti va ijodini o'rgatish“, „Umumta'lim maktablarida Rashod Nuri Guntekin hayoti va ijodini o'rgatishning samarali usullari“, „Ta'lim bosqichlari dastur va darsliklarida mavzuning berilishi“ deb nomlangan uchta bob, umumiy xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB. ADABIY TA'LIMDA RASHOD NURI GUNTEKIN HAYOTI VA IJODINI O'RGATISH

1.1. Rashod Nuri Guntekin hayoti va ijodini o'rgatishning tarbiyaviy-axloqiy asoslari

XX asrdagi mashhur turk yozuvchilaridan biri Rashod Nuri Guntekin turk realistik adabiyotining yirik vakili. Uning asarlari bir qator jahon tillariga tarjima qilingan. Ulkan iste'dod egasi bo'lmish ushbu adib 1889-yil 25-noyabrda Istanbulda dunyoga keladi. Otasi harbiy shifokor Nuribey, onasi Lutfiyexonim Erzurum gubernatori Yaver podshoning qizi bo'lgan. Boshlang'ich ta'limni Chanoqqal'ada tugatgan yosh Rashod Galatasaroy o'rta maktabida bir yil o'qib, Izmirdagi fransuz maktabiga o'qishga kirgan. Istanbul universitetining turk tili va adabiyoti fakultetida o'qigan, chet elda ham o'qishni davom ettirgan. Maktablarda o'qituvchi va xalq maorif nozirligida nazoratchi vazifalarida ishladi. Yurtiga qaytib kelgach, maorif sohasida ishladi. Yozuvchi Turkiya Buyuk millat majlisiga deputat bo'lib saylanadi, Turkiyaning YUNESKOdagi vakili lavozimida xizmat qiladi. Adib 1956-yil 7-dekabrda Londonda og'ir kasallik tufayli 67 yoshida vafot etadi.

Yozuvchining 24 jildlik asarlar to'plami nashr qilingan. XX asrning 20- yillarida bir qancha hikoyalari bosilib chiqadi. Adib 19 roman, 7 hikoyalar to'plami, qator pyesalar muallifidir.

Katta epik janrga qo'l urgan yozuvchi dastlab 1921- yilda „Sirli qo'l“ (1921) romanini yozadi. Keyinchalik „Xazonrezgi“, „Tamg'a“, „Yashil tun“ nomli romanlari nashr qilinadi.⁴


Dastlabki „Eski oshna“, „Xanjar“ va „Sirli qo'l“ asarlarida kiborlar jamiyatiga xos illatlar fosh etilgan.

Yozuvchining „Yashil tun“, „Tegirmon“, „Tamg'a“, „Xazonrezgi“ asarlarida oddiy xalq vakillarining og'ir turmushi, ayollarning ijtimoiy tengsizligi o'zining

⁴ To'xliyev B., Karimov B., Usmonova K.. Adabiyot. O'rta ta'lim muassasalarining 11- sinfi va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari uchun darslik majmua. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018. – B. 164.

realistik ifodasini topgan. Bu asarlarda jamiyatning olg'a ketishiga to'siq bo'lgan turli illatlar fosh qilingan.


„Iztirob“ nomli asarida ko'plab muammolar sanab o'tilgan, unda vijdon buyurgan ish qonunga to'g'ri kelmasligi haqida so'z yuritiladi. Qonun ruxsat etgan ishga esa vijdon yo'l qo'ymaydi. O'zidan yuqori mansabdagilarga laganbardorlik qilish, tizimning yolg'onchi, adolatsizligi keskin fosh qilingan. „Iztirob“ asari hamma narsa ham aslida ko'ringanichalik sodda emasligini, bir inson matonati va farzandlariga bo'lgan ulkan mehrini o'zida aks ettira olgan g'oyat ta'sirli asardir.




Rashod Nuri Guntekinning „Yashil kecha“ romanida esa nafaqat bir inson taqdiri, balki bir qancha taraqqiyparvar ziyolilar hayoti aks ettirilgan. Unda boshlang'ich fan o'qituvchisi Shohin Afandining kechmishlari tasvirlangan bo'lib, dinni niqob qilgan ba'zi kimsalarga nafrati ham ko'rsatilgan. Uning din haqidagi ichki kechinmalari qanday bo'lmasin baribir ilmga, olimlarga va kitoblarga bo'lgan hurmati cheksiz edi. U bir qancha vaqt o'z his tuyg'ulari bilan ham kurash olib boradi. Asar voqealari juda ta'sirchan va ibratli hodisalarga boy bo'lib, bir insonning butun umrini ezgulikka sarflagani haqida hikoya qiladi. Urushlar, bosqinchiliklar vaziyatni qanchalar o'zgartirmasin, Shohinbeyning ezgu ishlari Saroivada juda katta inqilob bo'ldi.

Bunday tasvirlar o'quvchi dunyoqarashining kengayishiga, yaxshilik va yomonlik haqidagi tasavvurlarining boyib borishiga zamin hozirlaydi.


Yozuvchining dunyoga mashhur asarlaridan biri „Choliqushi“ romanida turk qishloqlarining yorqin manzarasi chizilgan, asar qahramonlari hayoti, sarguzashtlari mahorat bilan tasvirlangan. Albatta, dunyo adabiyotida Rashod Nuri Guntekin „Choliqushi“ romani bilan shuhrat qozondi. Adibning ushbu romani Mirzakalon Ismoiliiy tomonidan o'zbek tiliga tarjima



qilingan va ilk bor 1922- yilda „Vaqt“ gazetasida bo‘limlarga ajratilgan holda chop etilgan. Asar birinchi marta 1923-yilda kitob holida chop etilgan. 1937-yilda yozuvchining ayrim o‘zgartirishlaridan keyin roman mukammal holga keltirilgan. 1966- yil „Choliqushi“ asari asosida film suratga olingan. 1986-hamda 2013-yillarda esa asosida teleserial suratga olinadi. 1986-yilgi serial „O‘zbektelefilm“ kinostudiyasida o‘zbek tiliga dublyaj qilingan⁵.



Rashod Nuri Guntekin qalamiga mansub ushbu durdona asar 2018-yilda o‘rta ta’lim muassasalarining 11-sinfi va o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi muassasalarining o‘quvchilari uchun chop etilgan „Adabiyot“ darslik-majmuasiga kiritilgan⁶ va o‘quvchilar ma’naviy olamini jahon adabiyotining eng sara asarlari bilan tanishtirish, ularni boshqa xalqlar hayoti va ribojlanish jarayonlari bilan tanishtirish, yosh avlod qalbida insoniylik, mehr-oqibat, qadr-qiyamat tuyg‘ularini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.



„Choliqushi“ romani ishqiy mavzuda yozilgan asar bo‘lishi bilan birgalikda o‘sha davrning ijtimoiy muammolariga mohirona tanqidiy yondasha olgan roman sifatida ham muhimdir⁷.

Asarda yosh o‘qituvchi Farida va uning Komronga bo‘lgan muhabbati haqida so‘z yuritiladi. Romanning oxirgi bo‘limidan tashqari to‘rt qismi bosh qahramon Faridaning xotira daftari sifatida uning tilidan hikoya qilinadi va ikki yarim yoshidan boshlab yigirma besh yoshiga yetguncha, muhabbati Kamronga erishguncha bo‘lgan voqealarni o‘z ichiga oladi. Beshinchi qismda esa Farida va Kamronlarning muhabbatlariga erishishlari haqida hikoya qilinadi.

Romandagi voqealar Birinchi jahon urushi arafasida yuz beradi. Asarning bosh qahramoni Farida yoshligida ota-onasidan ajrab, hayotda turli qiyinchiliklarga duch

⁵ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Choliqushi>

⁶ To‘xliyev B., Karimov B., Usmonova K.. Adabiyot. O‘rta ta’lim muassasalarining 11- sinfi va o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi muassasalarining o‘quvchilari uchun darslik majmua. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018. – B. 164.

⁷ Alimov N. Jahon adabiyotining eng buyuk asarlari. – Toshkent, 2019.

keladi. Farida o'z xolasining o'g'li Komronni sevib qoladi. Kamron ham uni sevadi, ammo oilaviy shartlarga ko'ra ular birga bo'la olmaydilar. Farida o'qituvchi bo'lib ishlash uchun chekka qishloqqa ketadi. Asar yakunida ikki yosh, nihoyat, bir-biriga yetishadilar.

Yozuvchi o'z asarlarida insonning haqiqiy sevgisiga alohida o'rin ajratadi. Onado'lu bilan bog'liq voqealarni haqqoniy tasvirlash uchun inspektor bilan birga sayohat qilgan. Darvoqe, adib asar yozish oldidan shunday fikr bildirgan edi: „... mavzu aqlga juda sodda tarzda keladi. Har doim ham shu zahoti rejalashtirib, yozishni boshlamayman. O'zim topgan mavzuni xayolimda saqlayman. Uni xamir singari ko'tarish uchun uzoq vaqt qoldiraman. Oradan ko'p yillar o'tishi ham mumkin. Bu davrda men mavzuga oid qo'shimchalar kiritaman yoki ayrim qismlarini olib tashlayman“.

„Choliqushi“ romanida adib turk xalqining ajoyib so'z qochiriqlari, tabiat manzaralari, insonlarning xarakterini shunday tasvirlaydiki, o'quvchi asar mutolaasi jarayonida qahramonlar orasida yashay boshlaydi, dard-u tashvishlarini his qiladi, quvonchiga sherik bo'ladi. Ha, Faridaning muhabbati, qismati kitobxonni befarq qoldirmaydi. Har qanday gapga chiroyli javob berib mot qilishi, hayotining og'ir damlarida ham tabassum qila olishi har bir insonga o'rnak bo'la oladi. Qahramon dard-u alamlari, quvonchlari, iztiroblari – barcha qalb kechinmalari o'quvchi yuragidan joy oladi. Romanni o'qish jarayonida uning samimiyati, ochiq ko'ngilliligi, shijoati, to'g'riligi, sadoqati va boshqa fazilatlar ham namoyon bo'ladi. Asarda joziba, shiddatli bayon uslubi, Farida obrazining betakror qirralari har bir o'quvchining diqqat-e'tiborini o'ziga torta oladi.

Farida bolaligidan sho'x, shaddod va haqiqatgo'y qiz bo'lib o'sadi. Uning to'g'riso'zligi maktabda o'qib yurgan paytidanoq namoyon bo'ladi: „Aslida esa, onalar oltin va havoranglardan boshqa ranglarda ham bo'ladilar. Faqat so'rlarning⁸ o'quvchilari qalamidan shunday ranglarga bo'yalib chiqish u bechoralar uchun bir

⁸ So'r (soeur) – opa (fransuzcha). Bu yerda fransuz katolik tarbiyaxona murabbiyasi.

majburiyat, biz uchun esa bir odat edi“. U esa onasining asl qiyofasini o‘zgartirib tasvirlashni istamaydi va bolaligi qanday kechgan bo‘lsa, qog‘ozga boricha tushiradi.

„Choliqushi“ni shunchaki bir ishqiy roman bo‘lib qolishidan qutqargan, an’anaviy sevgi-muhabbat mavzusida yozilgan boshqa asarlardan farqi – ayni paytda romanning o‘sha davr ijtimoiy holatidan ham hikoya qilishidir. O‘zi ham muallim bo‘lgan yozuvchi roman qahramoni Faridani ham o‘qituvchi tarzida gavdalantirib, asarda ta’lim-tarbiya masalasiga alohida e’tibor qaratgan. Farida Onado‘luda ishlab yurgan paytlarida onasidan qolgan qimmatli buyumlarini sotib kun ko‘radi, puli tugaganda esa hatto och qolgan vaqtlari ham bo‘ladi: „Men muallimlikni ochlikdan o‘lmaslik uchun qabul qilgan edim. Hisobim to‘g‘ri chiqmadi. Bu kasb bir kun ochlikdan o‘ldirishi hech gap emas“⁹.

Rashod Nuri Guntekin romanda byurokratiya va qog‘ozbozlikka ham alohida ahamiyat qaratadi. Farida byurokratiya nima ekani va uning qanday ishlashini bilmas, rahbarlarning mas’uliyatsizligi va mensimasdan muomala qilishlaridan xabarsiz edi. Romanda an’anaviy ta’lim-tarbiya tushunchasi va yangi ta’lim berish shakli orasida kurash yuzaga keladi. Yozuvchi aynan o‘sha davrda ta’lim sohasidagi tanqid qilingan jihatlarni romanda mohirona aks ettiradi.

Rashod Nuri Guntekin samimiy, ochiq ko‘ngil, to‘g‘riso‘z yozuvchidir. Adibning ijodiy merosi haqli ravishda jahon adabiyotining eng yaxshi namunalari sirasiga kiradi. Uning ijodiga qiziqish kamaymayajak. Yozuvchining adabiy merosi kelajak sari qadam chekmoqda. Inson vijdoni pokligi va buyukligi timsoli bo‘lmish buyuk adib avloddan avlodga o‘tib boraveradi va bu harakat mangudir.

Asarda mehr-muruvvat mavzusiga keng o‘rin berilgan. Farida xolalarini juda yaxshi ko‘radi. Xolalari ham uning bezori, shaddod qiz bo‘lishiga qaramay, har doim mehr-muruvvat ko‘rsatib, onasidek g‘amxo‘rlik qilishadi. Yozuvchi Farida tilidan shunday yozadi: „Naqadar orsiz ko‘nglim bor mening, atrofimdagi insonlarni bunchalar tez yoqtirib qolaveraman“.

⁹ Alimov N. Jahon adabiyotining eng buyuk asarlari. – Toshkent, 2019.

Romanning mahzun va romantik tarzda o'ziga xos hikoya qilinishiga o'lim va ayriliq tushunchalarining ta'siri kuchlidir. Farida og'ir xastalik sabab onasidan erta ajraladi. So'ngra buvisining soyasida o'sadi, ammo u ham qizaloqni xolalari qaramog'iga topshirib, bu dunyodan ko'z yumadi. Otasi harbiy xizmatda ishlagani uchun qizining yonida ko'p bo'la olmaydi, uni qizlar o'qiydigan fransuzlar maktabiga berishga qaror qiladi. Maktabda o'qib yurgan paytida beshafqat urush otasini ham undan tortib oladi. Yozuvchi ayriliq onlarini Farida tilidan shunday tasvirlaydi: „Vujudimni bolalikning izlari hali tark etmadi, ammo ko'nglim yaxshi ko'rgan insonlarimning o'liklari bilan liq to'la“.

Asarda diqqat qaratishimiz lozim bo'lgan yana bir jihat g'ururdir. „Choliqushi“ romanining asosiy qahramoni Turkiya Jumhuriyati uchun o'rnak bo'la oladigan obrazdir. Farida bolalikdan o'zini hech kimga xafa qildirmagan, o'z haqqini himoya qila olgan, kirishimli, zamonaviy bir qiz bo'lgan.

Xullas, ushbu asarni mutolaa qilish jarayonida o'quvchilar bolalik xotiralariga sodiqlik, mehr-muruvvat, or-nomus, oila-a'zolariga g'amxo'rlik, sadoqat kabi insoniy fazilatlarni o'zida shakllantirib boradilar, ona tabiatga bo'lgan muhabbat ham o'sib boradi. Shuni ham ta'kidlab o'tishimiz joizki, darslikda „Choliqushi“ romanidan berilgan parchada o'smir yoshidagi o'quvchilar tarbiyasi uchun biroz to'g'ri kelmaydigan voqealar ham topiladi. 11-sinf o'quvchilari o'z kitobida 15 yoshli qizning ishqiy sarguzashtlarini o'qishi axloq qoidalariga biroz to'g'ri kelmaydigandek. Romanda berilishicha, Komron bilan Narimon degan bir tul ayol o'rtasidagi munosabatlarni Farida ulkan bir daraxtga minib, yuqorida o'tirib tomosha qiladi. Farida o'zining ham boshqa qizlar kabi qalb egasi ekanligini anglatish uchun ham Komron bilan Narimon o'rtasidagi uchrashuv sahnasiga o'z laqabini qo'yib gapirib beradi.

„Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'rganilishi ko'zda tutilgan adabiy ta'lim asosida hech kimga o'xshamagan alohida shaxsni, mutolaa qiladigan, mohiyatini anglaydigan, tahlil etib, xulosa chiqara biladigan, qahramon holatini his etadigan,

o'zgalar dardiga sherik bo'ladigan, ularni tushunadigan va shu asnoda o'zini ham „kashf“ eta biladigan barkamol insonni tarbiyalash maqsadi turadi.“¹⁰

O'quvchilar darslikda berilgan asarning parchasini o'qib, qahramonlar holatini his etishi, hali sevgi-muhabbat nimaligini anglamay turib, o'zini ham Farida yoki Komron timsolida qayta „kashf“ qilishi mumkin. Asarning Farida tilidan hikoya qilinishi, bu xil voqea-hodisalar uning qalb oynasiga solib qaralishini inobatga oladigan bo'lsak, asarda hech qanday g'ayritabiiylik yo'qdek tuyuladi. Lekin yuqoridagi kabi voqealar o'quvchilar axloqiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Romanda tasvirlangan qahramonlarning mentalitetimizga to'g'ri keladigan va o'smir yoshidagi o'quvchilarning odob-axloqi uchun namuna bo'la oladigan jihatlari darslikka kiritilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi. Darsliklar tuzish murakkab, katta kuch talab qiladigan jarayon bo'lishi bilan birgalikda, yetishib kelayotgan yosh avlodning tarbiyasiga ta'sir qiluvchi mas'uliyatli ish hamdir.

¹⁰ Shahlo B. Inson va hayot voqeligini metaforik uyg'unlashtirishda badiiy psixologizmning o'rni.

1.2. Adabiyot darslarida Rashod Nuri Guntekin hayoti va ijodini ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanib o'rgatish

Mamlakatimizda demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurish maqsad qilingan va amalga oshirilayotgan ekan, bu jarayonda yoshlarning o'rni va roli alohida ahamiyatga ega. Zero, yoshlar bizning kelajagimiz, avlodlardan meros qolgan muqaddas zaminni yuksaltirish, ilg'or davlatlar darajasiga ko'tarish ularning bilimi, iste'dodi, jasorati, ma'naviy barkamolligiga bog'liq. Shuning uchun ham o'zining barcha asarlari va ma'ruzalarida yoshlar tarbiyasini markaziy o'ringa qo'yish bilan uni davlat siyosati darajasiga ko'tarishga erishgan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev quyidagi fikrlarni ta'kidlaydi: „Ma'lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Tarbiya qancha mukammal bo'lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi, deydi donishmandlar. Tarbiya mukammal bo'lishi uchun esa bu masalada bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi“¹¹ Albatta, bugungi kun o'qituvchisi **yangilikka intiluvchan, uni to'g'ri qabul qilib o'z o'quvchisiga yuksak darajada yetkaza olishi** zarurdir. Darslarni yuqori darajada tashkil qilish va o'tkazish uchun, avvalo, o'qituvchining o'zi pedagogik jihatdan mahoratga ega bo'lishi zarur. Shundagina bunday o'qituvchi yosh avlodni har jihatdan yetuk va barkamol inson qilib tarbiyalay oladi.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yoshlarning ta'lim va tarbiyasi hamda kitobxonlik madaniyati haqida shunday degan edi: „Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. „Adabiyot, san'at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi“. Biz O'zbekistonda „Adabiy do'stlik – abadiy do'stlik“ degan chuqur ma'noli tamoyilga amal qilgan holda, jahon adabiyotining durdona asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilish va nashr etish masalasiga g'oyat jiddiy e'tibor qaratmoqdamiz“.¹²

¹¹ Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: O'zbekiston 2018. – B. 505

¹² <https://www.xabar.uz/uz/madaniyat/shavkat-mirziyoyev-adabiyot-sanat-va>

Ta'lim tizimida hayotga tadbiq etilayotgan islohotlarning barchasi tub mazmun-mohiyati bilan yoshlarimizning yurt ravnaqi uchun fidoiy, izlanuvchan bo'lib yetishmog'iga qaratilgan. Bugungi kun ta'limida o'quvchilarda ijodiy munosabatni shakllantirishga, ta'lim samaradorligini oshirishga, o'quvchilarda ijodiy firklash malakalarini rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Shu bilan birga boshqa mamlakatlardagi ta'lim texnologiyalarini va ularning tajribalarini o'rganish va mos tomonlarini tadbiq etish jarayoni ham jadal rivojlanib bormoqda. Adabiyot ta'limida qo'llanilayotgan **xorijiy tajribalar** modulli tizim, case study, masofali o'qitish, mahorat darslari, vebinar kabi yangi texnologiya va metodlar bilan boyimoqda.

O'qitish jarayoniga yangi ta'lim texnologiyalarini kiritib, **noan'anaviy ta'lim usullaridan:** „Konferensiya darsi“, „Seminar darsi“, „Aralash darslar“, „O'yinchoqlar yordamida dars o'tish“, „Kasbga bog'lab dars o'tish“, „Badiiy adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish“, „Evrika“ („O'ylab top“); **ta'limning qiziqarli faol usullaridan:** „Kichik va katta guruhlarda ishlash“, „Rolli o'yinlar“, „Sahna ko'rinishi“, „Krossvordlar yechish“, „Zakovat savollari“, „Test-sinov topshiriqlari“, „Turli tarqatma materiallardan foydalanib dars o'tish“, „Sinkveyn o'yinlari“; **shuningdek, ta'limning innovatsion (yangi) usullari:** „Improvizatsiya“, „Aqliy hujum“, „Debat“, „Tanqidiy fikrlash“, „Klaster usuli“, „Muammoli vaziyat“, „Muayyan holat, vaziyatni o'rganish, tahlil qilish“, „Har kim har kimga o'rgatadi“, „Nuqtayi nazaring bo'lsin“, „Multimedia“ va boshqalarni qo'llashi muhimdir“.¹³

Hozirgi kunda tadqiqot mavzumiz hisoblanmish Rashod Nuri Guntekin hayoti va ijodini umumta'lim maktablarida o'rgatish jarayonida turli zamonaviy hamda xorijiy metod va usullardan foydalanish mumkin. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta'lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi.

¹³ Ibragimova M., Shermatova H. Ta'lim jarayonida faol usullarni qo'llash. Uzluksiz ta'lim. Toshkent, 2005. 5- son, 16-17- betlar.

Amerika ta'lim standardlaridan biri bo'lgan „**Tanqidiy fikrlash**“ metodi quyidagi uch bosqichdan iborat:

- da'vat;
- anglash;
- fikrlash.

Da'vat bosqichida o'quvchiga mavzu bayon etiladi va bu borada uning bilimlari sinalladi. Mavzuni o'rganish asosida qanday natijaga erishish bayon etiladi.

Anglash bosqichida o'rganiladigan material ustida faol ishlanadi. O'quvchilar bilan individual, frontal va guruhlarda ishlanadi. Bu bosqichda suhbat, tushuntirish, kichik guruhlarda ishlash, yozma ishlar o'tkazish, munozara kabi usullardan foydalanish mumkin.

Fikrlash bosqichida erishilgan natija avvalgi bilimlar bilan taqqoslanadi. Yangi bilim ko'nikmalari ifodalanadi. Olingan bilimni umumlashtirish, xulosalash jarayonlari bajariladi. O'rta tashlangan masala yoki muammo yuzasidan fikr aytish, o'zgalarning fikrlarini tanqidiy idrok etish, o'z nuqtayi nazarini asoslab berish va saqlab qolish imkoniyatiga ega bo'lishga asoslangandir. Bunday usuldan bahs-munozara xususiyatiga ega bo'lgan mavzular muhokamasida foydalanish mumkin. Misol tariqasida shu savollar keltiriladi:

1. Romandagi voqealar bilan shu nomdagi filmda ham aks etganmi?
2. Faridani boshqalardan ajralib turadigan tabiatiga xos xususiyatlar to'g'risida fikringizni ayting.
3. Siz ham o'z xotiralaringizni yozib borasizmi? Yoki bunday fikr sizda endi uyg'ondimi?

O'quvchilar o'z fikrlarini asoslaydilar, ularga o'z nuqtayi nazarlarini aniqlash, fikrlarini bir joyga to'plash uchun imkoniyat va fursat beriladi. O'quvchilar javobi tinglangach, o'qituvchi o'z xulosasini aytadi.

Bu usulni qo'llashdan maqsad: o'quvchilarda tinglash va muloqot ko'nikmalarini shakllantirish, turlicha qarashlar va nuqtayi nazarlarni muhokama qilish, tahliliy mushohada yuritish va fikrlash qobiliyatini oshirish, o'z

dunyoqarashini, nuqtayi nazarini, fikrini shakllantirish, bayon etish mahoratini takomillashtirish imkonini beradi.

„Step by step“ (Qadam-baqadam) metodi. O‘qituvchi biror bir ma’lumotni ketma-ket, qadam-baqadam ifodalash lozim bo‘lgan vaziyatlarda ushbu metoddan foydalanishi mumkin. Rangli qog‘ozlarga berilishi joiz bo‘lgan bir nechta ma’lumotlar sonida qadamlar tasviri chiziladi va tegishli ma’lumotlar birin-ketin ushbu qadamlar ichiga yoziladi. Dars davomida sinf yozuv taxtasiga tayyorlangan ma’lumotlar ilinadi. Bu jarayonda qadam (oyoq) izlari ketma-ketligiga rioya qilingan holda qistiriladi.

Mazkur metod o‘quvchilarni e’tiborini bir nuqtaga qaratishga, ma’lumotlarni tizimlashtirishga, ularning diqqatini jalb etish orqali ma’lumotlarning yodda saqlanishiga, motivatsiyaning oshishiga, har bir ma’lumotning ketma-ketligini aniqlash ko‘nikmasini rivojlantirishga yordam beradi.

Badiiy adabiyot borliqni, jonli manzaralarni obrazlar orqali aks ettiradi. Tabiatiga ko‘ra adabiyotning o‘zi borliqning ko‘rgazmali tasviridan iborat. Ammo adabiyot darslarida san’atning boshqa turlari – texnika vositalaridan kompyuter, video proyektor, kino, televideniye, musiqa, tasviriy san’at ham yordamga kelishi mumkin. Bular adabiyot darslariga qo‘shimcha axborot manbayi bo‘lib xizmat qiladi, o‘quvchilarda estetik tuyg‘ularning shakllanishi va rivojiga imkon beradi.

Tarmoqda qo‘shimcha materiallarning ko‘pligi o‘quvchilarga internet orqali vizual va didaktik materiallar, testlar, tanqidiy maqolalar, insholar va shu kabilarni yaratishga imkon beradi. San’atni tinglash elektron adabiyotlar ona tili va adabiyotga bo‘lgan muhabbatni uyg‘otish uchun har xil turdagi badiiy asarlarning professional ijro etilishini namoyish etish uchun xizmat qiladi. Elektron lug‘atlar va ensiklopediyalar mobil telefonga qo‘shimcha ma’lumot olish va darsda undan foydalanishga imkonini beradi.

Agar ko‘rgazmalilikning didaktik funksiyasi oldindan puxta o‘ylab, ko‘rilmasa, dars samaradorligi bir qadar susayishi, ayrim holatlarda esa unga mutlaqo salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Misol uchun, Rashod Nuri Guntekinning


„Choliqushi“ asarini o‘rganishda shu nomdagi filmdan foydalanildi. Bunda film faqat illyustratsiya vazifasini ado etadi. U o‘quvchilardan faol aqliy faoliyatini talab qilmaydi, darsdagi faollik pasayadi. Bugina emas, badiiy-adabiy obrazning kino obrazi bilan bir xil baholanishi kabi xavf ham paydo bo‘lishi mumkin.

Asarni to‘laroq idrok etish adabiyotga yaqin bo‘lgan san’at asarlaridan foydalanishdan oldin o‘quvchilar dastlab asar haqida tasavvurga ega bo‘lishi lozim. Adabiyot darslaridagi ko‘rgazmalilik oxirgi maqsad emas, balki vositadir. Shunga ko‘ra o‘quvchi filmni yoki rasmni ko‘rib, kuy yoki qo‘shiqni tinglab bo‘lganidan keyin unga shunday savollar berilishi lozimki, bu topshiriq va savollar o‘quvchini badiiy asar ichiga olib kirishga, badiiy obraz yoki tasvir mohiyatini chuqurroq anglashga, so‘zning ta’sir kuchini yaqqol his etishga yordam bersin. Darslarni tayyorlash va o‘tkazishda AKTdan foydalanish o‘quvchilarning fanga qiziqishini, o‘quv faoliyati va bilim sifatini oshirishi, savol berish uchun vaqtni tejash, talabalarga nafaqat darslarda, balki uyda ham mustaqil ravishda o‘rganish imkoniyatini beradi va o‘qituvchiga o‘z bilimlarini oshirishga yordam beradi.

Yangi tahrirdagi ta’lim to‘g‘risidagi qonunning (2020-yil 7-avgust) to‘rtinchi moddasida „ta’lim tizimining dunyoviy xususiyatga egaligi“, 5-moddasida „ta’lim tashkilotlarida innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash va o‘quv dasturlarini innovatsion texnologiyalarni qo‘llagan holda amalga oshirish“, 16-moddasida „masofaviy ta’lim o‘quv dasturlariga muvofiq ta’lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko‘nikmalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda internet jahon axborot tarmog‘idan foydalangan holda masofadan turib olishga qaratilgan“ bandlari mavjud. Globallashuv davrida o‘qituvchilar ham zamonga moslashib, texnologiyalardan unumli va samarali foydalanish, yangidan yangi metodlar yaratish, yoshlarga bilim berishning zamonaviy usullarini, jumladan, yangi ijtimoiy dasturlardan foydalanish va ularni dars jarayoniga tadbiq qilishni bilish talab qilinmoqda. Bugungi kun yoshlar hayotida ijtimoiy tarmoqlar muhim ahamiyat egallamoqda. Xususan, pandemiyadan oldin Telegram, Facebook, Instagram, Twitter

kabi messenjerlardan ko‘proq foydalanilgan bo‘lsa, pandemiya davrida Tik tok, Zoom, Google Classroom, Moodle kabi dasturlardan kengroq foydalanilmoqda.

Hozirgi kunda Word, Excel, Power Point dasturlari fan o‘qituvchilarining kundalik texnikaviy qurollariga aylanib ulgurdi. Ta’lim sohasiga kirib kelgan yangiliklardan yana biri bu – Power Point dasturida iSpring, easy Quizzy, Google




Classroom ilovalarining paydo bo‘lishidir. Ushbu ilovalar har xil animatsiyalar yaratishga, interfaol testlar tuzishga imkon beradi. Testlarning savollari va javoblariga turli rasm, sxema va formulalarni biriktirish mumkin. Har bir shakl muayyan

didaktik ahamiyatga ega. Misol uchun „To‘g‘ri / noto‘g‘ri“, „Bitta to‘g‘ri javobli yopiq test“, „Bir necha to‘g‘ri javobli yopiq test“, „Matn kiritiladigan ochiq test“, „Moslikni aniqlash testi“, „Tartibga keltirish testi“, „Son kiritiladigan ochiq test“ kabi turlari mavjud.

Google Classroom – masofaviy ta’lim olish uchun o‘quv darslariga mo‘ljallangan dastur. Maktab va o‘qituvchilarga sinf a‘zolari bilan xavfsiz muhitda bo‘lish hamda muloqot qilish uchun virtual sinflarni yaratish imkonini beradi. Buning uchun foydalanuvchi Google hisob (gmail)ga ega bo‘lishi talab etiladi. O‘qituvchi sinflar yaratishi yoki ular uchun ajratilgan ommaviy guruhlariga ega bo‘lishi shart. So‘ngra o‘quvchilarga mavzuni tushuntirib beruvchi taqdimot, video va ma’lumotlar joylanadi. Uyga vazifa uchun topshiriqlar va e’lonlar yuboriladi¹⁴.

Ushbu dasturlar orqali nafaqat o‘qituvchilar darslariga ko‘rgazmali qurollar tayyorlashi, balki o‘quvchilar ham adabiyot darslaridan mustaqil ishlar, slaydlar tayyorlab, ma’lum bir mavzu yuzasidan qiziqarli topshiriqlar tayyorlash orqali o‘z ustida ishlab borsa, mavzuni yana ham chuqurroq o‘rganishi, darslikda berilgan parchalar yuzasidan qiziqarli topshiriq tayyoqlagan o‘quvchi asarning to‘liq matniga qiziqishi, shu orqali o‘quvchilarda kitobxonlik madaniyatining yanada rivojlanishiga yordam berishi va fanlararo integratsiyani ham vujudga keltirishi



¹⁴ <https://uz.eyewated.com.google-clasroom-yaratish>

mumkin. Agar dars mashg'ulotlarida video, audio, multimedia vositalaridan keng foydalansak, mavzu yuzasidan berayotgan ma'lumotlar o'quvchilar xotirasida yaxshi saqlanib qoladi, vaqtdan unumli foydalanishga erishamiz va shu orqali o'quvchilarni kompyuter va telefonlardan to'g'ri maqsadda foydalanishga o'rgatib boramiz.

O'quv jarayonida interfaol testlarni ishlab chiqish uchun o'qituvchi fanni va interfaol test shakllarini yaxshi bilishi, Google Classroom dasturida ishlash ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim. O'quvchilarga Rashod Nuri Guntekin hayoti va ijodi hamda „Choliqushi“ romani yuzasidan Google Classroom dasturida uyga vazifa qilib interfaol test topshirig'i beriladi.

„Veer“ (Xulosalash) metodi. Ushbu metoddan nazariy ma'lumotlar taqdimoti jarayonida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg'ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida, mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlil qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

Metodni amalga oshirish uchun o'quvchilar kichik guruhga bo'linadi. Har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilish uchun zarur bo'lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallar tarqatiladi. Har bir guruh o'ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib o'z mulohazalarini tarqatma materialga yozma bayon qiladilar. Guruhlar o'z taqdimotini taqdim etadilar. O'qituvchi tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborot bilan to'ldiriladi.

„Sindikat“ metodi. O'quvchilar uchta kichik guruhlariga bo'linishadi. Bunda taklif etilayotgan topshiriq uch xil nuqtayi nazardan hal etilishi zarur. So'zlarga o'z fikr-mulohazalarini bildirish topshirig'i beriladi. Har bir guruh a'zolari o'zlarining dunyoqarashlari orqali turli vositalardan foydalanib, topshiriqni bajaradilar. So'ngra javoblar birgalikda muhokama qilinib, umumlashtiriladi. O'qituvchi tomonidan eng yaxshi fikr-mulohazalar e'lon qilinib, guruh faoliyati rag'batlantiriladi.



„Fairy Tale Reality“ Game („Ertakdagi haqiqat“ o'yini). Bu usuldan o'tilgan mavzularni mustahkamlash bosqichida foydalanish mumkin. O'quvchilar


badiiy asarni o'qiganda asardagi yetakchi qahramon ruhiy olamiga boshqa obrazlarga qaraganda oson kirib, ruhan uyg'unlashib ketadi. Natijada, asarni o'qib bo'lgandan keyin ham bir necha kun sevimli qahramonining xayoloti bilan yashaydi, xulqi, fe'l-atvorini qisman o'zlashtirib taqlid qilib yuradi. Shuning uchun ham dars davomida „Choliqushi“ romanidan o'quvchilarning ko'pchiligiga tanish bo'lgan asar qahramonlari tanlanadi va ularning dars jarayonida „ishtirok etishi“ ta'minlanadi. „Sehrli tayoqcha“ yordamida o'quvchiga savol yoki topshiriq yo'llash mumkin. Bunda sinfdagi har bir o'quvchi hisobga olinadi. „Sehrli tayoqcha“ga avvaldan savol yozilgan qog'oz skoch yordamida o'ralgan bo'ladi. O'quvchilardan eng faoli „sehrli tayoqcha“sini sinfdoshlariga yo'llab javob beruvchi o'quvchini aniqlaydi. O'quvchi savolni o'qiydi va javob beradi. Javobi to'liq bo'lmasa, parta qatorlariga ko'ra o'quvchilar guruhlanib eng to'g'ri javobni aytishga harakat qilishadi. To'g'ri javob bergan guruh a'zolari o'qituvchi tomonidan berilgan rag'batlantirish kartochkalarini to'plab boradilar. Dars yakunida g'olib guruh aniqlanadi va baholanadi.

Ushbu metodning e'tiborli jihati shundaki, o'quvchilar savollarga tezkorlik bilan javob berishga intiladilar. Shuningdek, ertak yoki asar qahramoni sifatida darsda ishtirok etish ham o'quvchi o'smirlar uchun juda qiziqarli jarayondir. Ularda mustaqil ravishda mantiqiy fikrlash, fikrini erkin ifoda qilish ko'nikmasi shakllanadi. Romandagi biror qahramonga aylangan o'smir tengdoshlari orasida javob berolmaslikdan uyaladi. Ilm olishga ishtiyoqi kuchayib borayotganini esa baholari ijobiy bo'la boshlaganda sezadilar.

„We listen, we understand“ (Tinglaymiz, anglaymiz) metodida o'quvchilar audiomatn yoki videolavhalar orqali eshittirilgan matn asosida ishlaydilar. Matn yaratishdan oldin mavzuga oid audiomatn yoki videolavha asosida suhbat o'tkaziladi. Videolavhada ko'rganlari haqidagi taassurotlari va unga munosabatini mantiqiy fikrlab bayon qiladi va shu asosda matn yaratadi.



„Why?“ („Nima uchun?“) muammoli ta’lim texnologiyasi. Muammoning dastlabki sabablarini aniqlash bo’yicha fikrlar zanjiri. Tizimli, ijodiy, tahliliy fikrlarni rivojlantiradi va faollashtiradi. „Nima uchun“ sxemasini tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alohida kichik guruhlarda muammoni ifodalaydilar. „Nima uchun?“ so’rog’ini beradilar va sxema chizib, shu savolga javob yozadilar.



Xullas, umumiy o’rta ta’lim maktablarida Rashod Nuri Guntekin hayoti va ijodini o’rgatishga bag’ishlangan dars mashg’ulotlarida zamonaviy usul va metodlardan, ilg’or xorijiy tajriba va an’analardan samarali foydalanish dars sifatining oshishiga hamda darsdan kutilgan maqsadning to’liq amalga oshishiga bevosita xizmat qiladi.

Bugungi davr talabi dars jarayonini noan’anaviy tarzda mazmunli tashkil etish, o’quvchilarning qiziqishini orttirib, ularning o’quv jarayonidagi faolligini ta’minlashni taqozo etadi. Noan’anaviy darslarni tashkil etishda interfaol metodlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ular o’qituvchi va o’quvchilarning o’zaro faol munosabatlarida tashkil etiladigan mashg’ulot turidir. Bu orqali o’qituvchi va o’quvchi o’zaro hamkorlikda ishlaydi. O’quvchining erkin fikrlash jarayoni yangi pog’onaga ko’tariladi. O’qituvchi shu tarzda o’quvchilarni faollashtiradi, o’zlashtirishi past o’quvchilar dunyoqarashi va tafakkurini boyitib boradi.

II BOB. UMUMIY ORTA TA'LIM MAKTEBLARIDA RASHOD NURI GUNTEKIN HAYOTI VA IJODINI O'RGATISHNING SAMARALI USULLARI

2.1. Rashod Nuri Guntekin hayoti va ijodini o'rgatishning innovatsion usullari

Rashod Nuri Guntekin qalamiga mansub „Choliqushi“ romani jahon miqyosidagi shuhratiga yangi shuhrat qo'shdi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 11-sinf o'quvchilarida yuksak insoniy sifatlar shakllantirishga xizmat qilishi jihatidan tengsiz imkoniyatga ega asarlaridan biridir. Betakror uslubda bitilgan bu asar matnidan ayrim parchalarning o'qituvchi tomonidan o'qib berilishi maqsadga muvofiqdir. O'qituvchi roman matnidan saralab olingan parchalarni soatlarga taqsimlab, qaysi qismi qachon o'qilishi lozimligini rejalashtirib olishi lozim. Buning uchun asar matni muayyan bo'laklarga ajratilishi ham, ona tili bilan adabiyot soatlarini birlashtirib to'lig'icha o'qilishi ham mumkin. Har qanday matnning badiiyligini ta'minlagan asosiy jihat uning yaxlitligi bo'lgani uchun ham asar bilan tanishish va uni tahlil etishda shu butunlikni saqlab qola bilish zarur. Romanning asosiy mavzusi muhabbatdir. Faridaning uzoq vaqt muhabbatidan ayro qolishiga sabab boshqalarga munosabatini aniq ifoda eta olishni yetarlicha bilmasligidir. G'ururi va sevgisi orasidagi muntazam kurashni to'xtatolmagan Farida uzoq yil g'ururining sevgisi ustidan qozongan g'alabasi natijasidan azoblanib yashaydi. Onado'luda kechgan yillari esa uni batamom o'zgartiradi.

O'ziga xos uslubda bitilgan ushbu asarning ayrim ta'sirli o'rinlari o'qituvchi tomonidan o'qib berilishi asnosida o'quvchilar tasavvurida roman qahramoni yashagan sharoit jonlanishiga erishish kerak. Adabiy qahramon tushgan sharoitini tasavvur qilolmagan o'quvchi uning tuyg'ularini ham his etolmaydi. Bu esa matnni anglamaslikka olib keladi.

Roman tahlilida o'quvchilar diqqati dastlab Faridaning yozgan bolalik xotiralari haqidagi tasvirga qaratiladi. Roman boshlanishida Farida es-hushini tanigan

kunlardagi kayfiyatni, atrof-muhitga, odamlarga, yaqinlariga munosabatlarini bayon etadi. Fransuz tili muallimasi Aleksy opaning taklifiga ko'ra boshqa tengdoshlari kabi u ham bolalik xotiralarini yozadi: „Men baliqlar singari ko'l ichida tug'ilganga o'xshayman. Onamni es-es bilaman... Otam, enagam, xizmatkorimiz Husayn ham esimda... Bir kun meni ko'chada quvgan qora laychani... Bir kun to'la savatdan yashiriqcha uzum olayotganimda barmog'imni chaqib olganlarini... Ko'zim og'riganda tomizilgan qizil dorini... Mehribon Husayn bilan Istanbulga kelganimizni... Ha, shularga o'xshash ko'p narsalarni eslayman... Lekin bulardan hech biri ilk xotira emas... Faridaning bu inshosi boshqa o'quvchilarga ham o'qib eshittiriladi.

Mazkur parchadagi tasvirlar, birinchidan, roman muallifining o'z qahramonini boshqalardan ajratib ko'rsatishi, ikkinchidan, ochiqko'ngil, to'g'riso'z, badiiy tafakkur tarziga ega ekanini boshidanoq ma'lum qilishi uchun zarur edi. Faridaning o'z e'tirofiga ko'ra: „Menga kelsak, men butunlay boshqacha qiz edim“, – deb yozadi u. Roman Faridaning shu „boshqacha“ligi tafsilotlari asosiga qurilgandir.

SWOT tahlil metodi munozarali masalalarni hal etishda, bahs-munozaralar o'tkazishda yoki biron-bir mavzu o'rganilib bo'lingach qo'llanilishi mumkin. Bu texnologiya o'quvchilarni o'z fikrlarini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga, o'quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishga, qay darajada egallaganliklarini baholashga hamda bahslashish madaniyatiga o'rgatadi.

„SWOT“ so'zi quyidagi inglizcha so'zlarning qisqartmasidan olingan:

S – Strengths (Kuchli tomonlari);


W – Weaknesses (Zaif, kuchsiz tomonlari);

O – Opportunities (Imkoniyatlari);

T – Threats (Xavf-xatar yoki to'siqlar).

Mazkur metoddan „Choliqushi“ romanini o'rgatish davomida foydalanish mumkin. Ya'ni guruhlariga bo'lingan o'quvchilar oldiga Faridaning kuchli tomonlari, kuchsiz tomonlari, imkoniyatlari va bunga to'siq bo'luvchi omillarni aniqlash

vazifasi topshiriladi. Shundan so‘ng o‘quvchilarning o‘z mustaqil qarashlari tinglanadi, bahs-munozara uyushtiriladi, ularning ijodiy fikrlash va o‘z fikrini isbotlash malakalari rivojlantiriladi.



„G‘oyaviy charxpalak“. Kichik guruhning har bir ishtirokchisiga toza oq varaqda bir xil savol beriladi. Barcha ishtirokchilar og‘zaki fikr almashmasdan, o‘zlarining varaqlarida savollarga bo‘lgan javoblarning o‘z-o‘zidan aqlga kelib qoladigan ifodalarini yozadilar. Ifodalar yozilgan varaqlar vaqt tanqisligi sababli soat millarining harakatlanishi bo‘yicha kichik guruhdagi qo‘shnilarga uzatiladi. Bunday varaqni olgandan so‘ng har bir ishtirokchi varaqda mavjud yozuvlarni takrorlamasdan, yangi yozuv kiritishi lozim. Har bir ishtirokchining varag‘i yana o‘ziga qaytib kelgandan so‘ng ish yakunlanadi. Kichik guruhlarda javoblar va takliflarning muhokamasi o‘tkazilib, ularning eng muhimlari va dolzarblari yakuniy ro‘yxatga kiritiladi. Barcha guruhlar navbatma-navbat yakuniy ro‘yxatdan o‘z ifodalarini taklif etadilar. Agar bu ifoda yuzasidan boshqa guruhlar e‘tiroz bildirmasalar, u oxirgi ro‘yxatga kiritiladi.

Ushbu metodni qo‘llash orqali o‘quvchilar taklif etilgan muammolarni izchil muhokama qilishni, jamoa bo‘lib qaror qabul qilishni o‘rganishadi.

„Insert“ strategiyasi metodi. Insert – o‘quv jarayonida o‘quvchilarning olgan bilimlarini mustaqil tahlil qilish va anglash imkoniyatini beradigan vositadir. O‘quvchilarni matnni oxirigacha o‘qib, uning mazmunini anglab, qayta hikoya qilishga o‘rgatadi. Faol bo‘lmagan o‘quvchilarning darsga qatnashishlarini ta‘minlash hamda qo‘shimcha ma‘lumotlarga ega bo‘lish vazifalarini bajaradi. O‘quvchilar matn bilan tanishib chiqadilar va quyidagi jadvalni to‘ldiradilar.




V bilganlarim ni tasdiqlaydi	+ yangi axborot	– bilganlarim ga zid keladi	? meni o‘ylantirib qo‘ydi

Har bir qatorni yoki har bir tushunchani belgilab chiqish shart emas. Bu belgilar yordamida o‘qilayotgan matn bo‘yicha umumiy tasavvur ifodalanishi kerak. Matnni yoki maqolani o‘qib bo‘lgandan keyin o‘qiganlarni sherigi bilan muhokama qilib olish uchun bir daqiqa vaqt beriladi. So‘ngra butun guruh a‘zolari mashg‘ulot davomida qanday yangi ma‘lumotlarga ega bo‘lishgani, o‘zlarini qiziqtirgan hamda yuzaga kelgan savollar va ularning javoblari muhokama qilinadi.

Romanda ishtirok etgan obrazlarni tahlil qilishda **„Klaster“** metodini qo‘llash ham yaxshi samara beradi. „Klaster“ metodi – ta‘lim oluvchilarda berilgan muammolar bo‘yicha erkin, ochiq o‘ylash, shaxsiy fikrlarni bimalol bildirish va turli javoblar o‘rtasida bog‘liqlik o‘rnatish hamda guruhlash imkoniyatini yaratuvchi metoddir. Bunda o‘quvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg‘ulotlar jarayonida foydalanish mumkin. Klasterlar tuzish o‘quvchilarning tasavvurlarini yangi bog‘lanishlar bilan boyitish, ularni grafik ko‘rinishda ifodalash hamda mavzu bo‘yicha yakuniy muhokama o‘tkazish vositasi sifatida qo‘llanilishi mumkin. Bu ularning yangi bilimlarni yaxshi o‘zlashtirilishi,

muayyan mavzu to'g'risidagi tasavvurlarini kengaytirish va unga tegishli bog'liqliklarni tushunishlariga yo'l ochadigan metoddir. Masalan, Farida obrazi asosida klaster tuzaylik. Buning uchun xayolimizga kelgan barcha so'z, tushuncha, g'oyalarni yozib chiqamiz. Ularni o'zaro aloqadorlik asosida da quyidagi „Farida“ klasterida aks ettirishimiz mumkin.



Yozuvchining hayoti va ijodi haqida o'quvchilarga to'liq ma'lumot berish va adibning ijodiy faoliyati haqida darslikda mavjud bo'lmagan materiallar bilan tanishtirish uchun xronologik jadvallardan foydalanish o'rinlidir. Bu usul orqali o'quvchilar o'rganilayotgan mavzudagi yillar ketma-ketligini oson o'zlashtiradib oladi va xotirasida saqlab qoladi:

Asosiy sanalar	Voqea-hodisalar bayoni
1889-yil 25-noyabr	Istanbulda dunyoga keladi.
1912-yil	Istanbul universitetini tugatgan
1921-yil	„Sirli qo‘l“ nomli ilk romani nashr ettirildi.

1933-yil	„Lev Tolstoy“ monografiyasi muallifi
1937-yil	„Choliqushi“ romani mukammal holatga keltirilib, chop etildi.
1956-yil – 7-dekabr	Londonda og‘ir kasallik tufayli 67 yoshida vafot etadi.
1958-1961-yillar	24 jildli asarlar to‘plami nashr etildi.
1966- yil	„Choliqushi“ asari asosida film suratga olingan.
1986- hamda 2013- yillar	„Choliqushi“ romani asosida teleserial suratga olinadi.
2018- yil	o‘rta ta‘lim muassasalarining 11-sinfi va o‘rta maxsus kasb-hunar ta‘limi muassasalarining o‘quvchilari uchun chop etilgan „Adabiyot“ darslik-majmuasiga kiritilgan.

„Assesment“ metodi. Assesment (inglizcha, „assessment“ – baho) o‘z-o‘zini taqdimot qilish, ma’lum sinovdan o‘tishdir. O‘quvchilarning mashg‘ulotda o‘tilgan mavzu bo‘yicha asosiy tayanch tushunchalar, ma’lumotlar, bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirib olinganlik darajalarini aniqlaydi. Mustaqil ravishda o‘zlarining bilim darajalarini baholay olishga, shuningdek, o‘z bilimlarini bir tizimga solishga o‘rgatadi. Bunda, avvalo, o‘quvchilarga tarqatma materiallar tarqatiladi. O‘quvchilar tarqatma materiallar orqali mavzu bo‘yicha berilgan vazifa, topshiriqlarni yakka tartibda bajaradilar. Ular o‘tilgan mavzu yoki bo‘lim asosida tuzilgan bo‘lishi ham mumkin. Topshiriqlar bajarilganidan so‘ng o‘qituvchi tarqatma materialda mavzu bo‘yicha berilgan topshiriqlar, vazifalarni erkin holatda yoki sinfda mavjud ekran orqali izohlab, to‘g‘ri javoblarni tushuntiradi hamda har bir katakda berilgan javoblarning baho mezonini bilan tanishtiradi. Har bir o‘quvchi to‘g‘ri javob bilan o‘zlari belgilagan javoblarning farqlarini aniqlaydilar. Bu orqali ularda o‘z-o‘zlarini tekshirib, baholash ko‘nikmasi ham shakllanib boradi.



1-topshiriq. (1 ball) Test	3-topshiriq. (1 ball) Muammoli vaziyat
2-topshiriq. (1 ball) Simptom	4-topshiriq. (1 ball) Amaliy ko‘nikma

„Chala xat“ metodini shoir va yozuvchilarning hayoti va ijodini, badiiy asarlarni o‘rganishda qo‘llash mumkin. Bunda darslikda berilgan matnning ba’zi joylari tushirib qoldiriladi. Metodni qo‘llashdan oldin mavzuni to‘liq o‘rganishni o‘quvchilarga uy vazifa topshirig‘i sifatida beramiz. „Choliqushi“ romanini qay darajada zehn bilan o‘rganganliklarini aniqlash maqsadida o‘quvchilarga „Chala xat“ zehn matni beriladi.

_____ – xunuk qiz. Lekin men bunga parvo qilmayman. Oramizda _____ yosh farq bo‘lishiga qaramay, men uni yoshligimdan beri katta opam o‘rnida ko‘rib, o‘rganib qolganman. Hozir farqimiz juda kamayib qolgan bo‘lsa ham, hamon unga avvalgiday qarab „opa“ deb gapiraman. _____ opam mening tamom aksim. Men qanchalik sho‘x, qanchalik olov bo‘lsam, u shunchalik _____, _____. Buning ustiga, sal zug‘mi ham bor. Xohlaganini qildiradigan bitta shuning o‘zi desam bo‘ladi. Ba‘zan nasihatlariga parvo qilmay, xohishlariga qarshi chiqsam hamki, yana bo‘ysunishga to‘g‘ri keladi. Nega? O‘zim ham hayronman. Odam bolasi birovni yaxshi ko‘rish halokatiga uchradimi, tamom, o‘shanga qul bo‘lib qoladi. U _____ xolam bilan birga necha yilda bir marta _____ ga kelar, bir necha hafta chorbog‘da qolar, yo boshqa xolalarimnikida mehmon bo‘lar edi. O‘sha yoz _____ dan meni chaqirib xat keldi. _____ xolam _____ xolamga yozgan xatida: „Sizdan-ku umidim yo‘g‘-a, lekin Faridani yozgi kanikulida, albatta, yuborsangiz, hech bo‘lmasa, _____ oygina turib ketsa. Kutamiz. Bilasiz-ku, biz ham xolamiz. Kelmasa, pochchasi ham, men ham, _____ ham juda qattiq xafa bo‘lamiz“, – debdi.

Mazkur chala xat ustida ishlash jarayonida o‘quvchilar bo‘sh turgan so‘zlar o‘rniga to‘g‘ri javoblarni yozib chiqadilar.

Topshiriqlar to'liq bajarilganidan so'ng monitor yordamida berilgan topshiriqning asl holati namoyish qilinadi yoki asl matn yozilgan tarqatma materiallar guruhlariga tarqatiladi:

Mujgon – xunuk qiz. Lekin men bunga parvo qilmayman. Oramizda **uch** yosh farq bo'lishiga qaramay, men uni yoshligimdan beri katta opam o'rnida ko'rib, o'rganib qolganman. Hozir farqimiz juda kamayib qolgan bo'lsa ham, hamon unga avvalgiday qarab „opa“ deb gapiraman. **Mujgon** opam mening tamom aksim. Men qanchalik sho'x, qanchalik olov bo'lsam, u shunchalik **og'ir, vazmin**. Buning ustiga, sal zug'mi ham bor. Xohlaganini qildiradigan bitta shuning o'zi desam bo'ladi. Ba'zan nasihatlariga parvo qilmay, xohishlariga qarshi chiqsam hamki, yana bo'ysunishga to'g'ri keladi. Nega? O'zim ham hayronman. Odam bolasi birovni yaxshi ko'rish halokatiga uchradimi, tamom, o'shanga qul bo'lib qoladi. U **Oysha** xolam bilan birga necha yilda bir marta **Istanbulga** kelar, bir necha hafta chorbog'da qolar, yo boshqa xolalarimnikida mehmon bo'lar edi. O'sha yoz **Taqirdog'idan** meni chaqirib xat keldi. **Oysha** xolam **Basima** xolamga yozgan xatida: „Sizdan-ku umidim yo'g'-a, lekin Faridani yozgi kanikulida, albatta, yuborsangiz, hech bo'lmasa, **ikki** oygina turib ketsa. Kutamiz. Bilasiz-ku, biz ham xolamiz. Kelmasa, pochchasi ham, men ham, **Mujgon** ham juda qattiq xafa bo'lamiz“, – debdi.

Ushbu usul yordamida o'quvchilarning sinchkovlik qobiliyatlari, asardagi asosiy obrazlar nomlari va ular bog'liq asosiy tushunchalar yodlab qolish imkoniyatlari oshib boradi.

„Adabiy xokkey“ ta'limiy o'yini. Yangi mavzuni mustahkamlash jarayonida ushbu ta'limiy o'yindan foydalanish mumkin. Dastlab o'quvchilar uch guruhga bo'linadi. „Choliqushi“ romani asosida olingan videofilmdan parcha namoyish etiladi. Guruh a'zolari roman yuzasidan berilgan savollarga javob berishadi. Bunda xuddi futbol o'yinidagidek 1-guruh – yarim himoyachi; 2-guruh – darvozabon va markaziy himoyachi; 3-guruh – hujumchi; o'qituvchi esa – hakam hisoblanadi. Har bir guruhga o'z o'rnini va vazifasi inobatga olinib topshiriq beriladi.

1-guruh (yarim himoyachilar)ga savol:

„Choliqushi“ romanining asosiy mavzusi nima?

2-guruh (darvozabon va markaziy himoyachilar)ga savol:

Qanday qilib Farida „Choliqushi“ ga aylandi?

3-guruh (hujumchilr)ga savol:

Roman voqealari qaysi davrda sodir bo‘ladi?

Savollarga javob yozib yarim himoyachi markaziy hujumchiga, markaziy hujumchi esa asosiy hujumchilarga topshiradi. 3-guruh hujumchilar hakam – o‘qituvchiga topshiradi. Agar savollarga javob to‘g‘ri yozilgan bo‘lsa, „gol“ sanaladi. Guruhlarga rag‘bat kartochkasi beriladi. Savollarga javob to‘liq yozilmagan bo‘lsa, „gol“ hisoblanmaydi, rag‘bat kartochkasi berilmaydi.

„Lotoreya“ ta’limiy o‘yini. Ushbu usuldan mavzuni mustahkamlash maqsadida foydalanish mumkin. O‘quvchilarga yozuv doskasida uch xil rangdagi savollar yozilgan lotoreya chiptalari jamlanmasi keltiriladi. Mavjud imkoniyat va qiziqishlardan kelib chiqqan holda yashil rangdagi savollar to‘g‘ri topilgan javoblari uchun 1 ball, ko‘k rangdagi savollar uchun 2 ball, qizil rangdagi savollar uchun 3 ball berish mumkin. O‘quvchilar savollarni ixtiyoriy tanlaydilar. Guruhdagi har bir o‘quvchining bergan javoblariga ko‘ra ballari hisoblab boriladi. Masalan:

1 ballik savollar

1. Rashod Nuri Guntekin ijodiga mansub bo‘lgan 3 ta asar nomini ayting.	<i>„Yashil tun“ „Iztirob“, „Tamg‘a“ romanlari</i>
2. Guntekin nomini jahonga mashhur qilgan asar nomi?	<i>„Choliqushi“</i>
3. „Choliqushi“ romanidan 3 ta ijobiy qahramon nomini ayting.	<i>Mujgon, Basima xola, Aleksi opa</i>

2 ballik savollar

1. Faridaning sho‘xliklarini ko‘rib „bu odam bolasi emas, choliqushi“ deb koyigan obraz kim?	<i>Muallimasi</i>
---	-------------------

2. Faridaning maktabga borgan ilk kunida qanday voqea sodir bo‘ladi?	<i>Vazaga barmog‘ini tegizib sindirib qo‘yadi</i>
3. Farida nimani „itning mushukni erkalatganiga“ o‘xshatadi?	<i>Narimonning munosabatini</i>

3 ballik savollar

1. „Dunyoda o‘zlaridan boshqa hech kimni yoqtirmaydigan xolalarimdan toritib xizmatchi qizlarga qadar – hamma ... ga mahliyo bo‘lib qolgan” kim edi?	<i>Narimon</i>
2. „... og‘ir, vazmin, sal zug‘mi ham bor. Xohlaganini qildiradigan obraz qaysi?	<i>Mujgon</i>
3. Ushbu ta’rif kim haqida? „... sochlari jingalak, sarg‘ish yuzi esa nozik, oppoq, yarqiroq.	<i>Komron</i>

„Detektiv“ ta’limiy o‘yini. „Choliqushi“ romanida tasvirlangan portret lavhalarini aniqlash topshirig‘i beriladi. Topshiriqqa yozma ravishda javob beradi. Ushbu metod orqali o‘quvchilar asar qahramonlarini ko‘z o‘ngida gavdalantiradi, bir-biridan farqini bilib boradilar. So‘ngra o‘quvchilar asar qahramonlari haqida o‘z fikrlarini bayon qiladilar. Reglament vaqtini 5-10 daqiqa shaklida olish mumkin. Misol tariqasida quyidagi parchalar har bir guruhga tarqatiladi.


„ ... Nima qilayotganini yaxshi biladigan “, sochlari jingalak, sarg‘ish yuzi esa nozik, oppoq, yarqiroq. (Komron)

„ ... juda zaif ekan. Bitmas-tuganmas yo‘llarga, tog‘larning qattiq havosiga, dalalarning jaziramasiga chidash beradigan sog‘ligi yo‘q“. (Faridaning onasi)

„ ... og‘ir, vazmin, sal zug‘mi ham bor. Xohlaganini qildiradigan, ba’zan nasihatlariga parvo qilmay, xohishlariga qarshi chiqsam hamki, yana bo‘ysunishga to‘g‘ri keladi“. (Mujgon)

„ ... sevgi savdosiga shunchalar ishqiboz ediki, buni boshqalarda sezdi deguncha, yuragi suyunchlarga to‘lib ketardi. Faqat o‘zi aytganidek, ishonishga, ochiq-oshkor sevinishga botinolmasdi“. (Mishel)

„Intervyu“ metodi. Intervyu – inglizcha, „interviyew“ so‘zidan olingan bo‘lib, uchrashuv, yuzma-yuz suhbat ma‘nolarini bildiradi. Mazkur metodda muxbir vazifasidagi o‘quvchi tomonidan berilgan mavzu bo‘yicha savollar beriladi, boshqa o‘quvchilar birin-ketin javob beradilar. Intervyuning asosiy qismini savol-javoblar tashkil etadi: gap tashlash (replika) – rag‘bat (stimul) – ta’sirlanish (reaksiya). Berilgan savol qisqa va lo‘nda, odob bilan berilishi kerak. Intervyuning xulolasi: intervyu beruvchining oxirgi savolga javobi yoki muxbir mulohazasi bo‘lishi mumkin. Intervyuning eng muhim muvaffaqiyati – to‘g‘ri va chiroyli savollar berishni o‘rganishdir.



„Boomerang“ metodi. Ushbu metod bir necha bosqichda o‘tkaziladi. O‘quvchilarga mustaqil o‘rganish uchun o‘tilgan mavzu yuzasidan matnlar tarqatiladi. Berilgan matnlar o‘quvchilar tomonidan yakka tartibda mustaqil o‘rganiladi. Har bir guruh a‘zolaridan yangi guruh tashkil etiladi. Yangi guruh a‘zolarining har biri guruh ichida navbati bilan mustaqil o‘rgangan matnlaridan axborot almashadilar, ya‘ni ma‘lumotlarni bir-birlariga so‘zlab beradilar. Shu orqali matnni o‘zlashtirib olishlariga erishiladi. Berilgan ma‘lumotlarni o‘zlashtirib olganini aniqlash uchun guruh ichida kichik nazorat o‘tkaziladi. Guruh a‘zolari bir-biri bilan savol-javob qiladilar.

Yangi guruh a‘zolari dastlabki holatdagi guruhlariga qaytadilar. O‘quvchilar bilimni baholash yoki to‘plagan ballarini hisoblab borish uchun har bir guruhga „guruh hisobchisi“ tayinlanadi. O‘quvchilar tomonidan barcha matnlar qay darajada o‘zlashtirilganligini aniqlash maqsadida o‘qituvchi o‘quvchilarga savollar bilan murojaat etadi, og‘zaki so‘rov o‘tkazadi. Savollarga berilgan javoblar asosida guruhlarning umumiy ballari aniqlanadi:

➤ har bir guruh a'zosi tomonidan guruhdagi matnning mazmunini hayotga bog'lagan holda bittadan savol tuziladi;

➤ guruhlar tomonidan tayyorlangan savollar orqali savol-javob tashkil etiladi. („guruh hisobchilari“ berilgan javoblar bo'yicha, ballarni hisoblab boradilar)


➤ guruh a'zolari tomonidan to'plangan umumiy ballar yig'indisi aniqlanadi;

➤ guruhlar to'plagan umumiy ballar guruh a'zolari o'rtasida teng taqsimlanadi.

„Zakovat“ metodidan mashg'ulotni mavzu yakunida takrorlash darsi sifatida foydalanish mumkin. Sinf 4 ta yoki 6 ta guruhga bo'linadi va oldindan tayyorlab qo'yilgan topshiriqli xat jildlarni (yoki kartochkalarni) guruh a'zolari navbat bilan olishadi. Shundan so'ng guruhlar o'zlariga tushgan topshiriqlarni bajarishadi va guruh javoblarini e'lon qilish uchun bir o'quvchini tanlashadi. Har bir guruhda ikki va undan ortiq savoldan iborat topshiriq beriladi. O'qituvchi har bir to'g'ri javob uchun ball qo'yadi. Agar biror savol-topshiriqqa noto'g'ri javob bo'lsa, boshqa guruhlar to'g'ri javobni berishi mumkin. Bu holda, javob bergan guruhga ball qo'yiladi. Shu tariqa har bir guruh o'ziga berilgan topshiriq bo'yicha taqdimotni o'tkazadi. Boshqa guruhlar esa ularni to'ldirishlari va noto'g'ri javoblarni to'g'rilab, ball olishlari mumkin. Natijada, o'tilgan o'quv materialini takrorlab, o'rgangan bilimlarini mustahkamlab olish va hamma o'quvchilarni mashg'ulotga jalb qilib, ularning darsda faol bo'lishlariga erishish mumkin. O'quvchi soni oz bo'lgan sinflarda esa sinfni guruhlarga bo'lmasdan, balki 3 ta qator o'rtasida musobaqa tarzida ham o'tkazish mumkin. Bu holda qatorlarga 2 martadan topshiriqli kartochka berish mumkin. 6 ta kartochka tayyorladi va har bir qatorga navbat bilan 2 martadan beriladi.

„Nodir tashbehlar“ metodi. Badiiy asarlar tahlili olib borilganda ushbu asarning badiiy tasviriy vositalarga qay darajada boyligi, yozuvchining so'z ishlatish mahoratiga o'quvchilar e'tiborini qaratish juda muhim sanaladi. Ushbu metod badiiy tahlilda o'quvchining eng nozik qalb torlariga yetib borgan, uni ta'sirlantirgan o'rinlardan o'xshatishlar, so'z sehridan hayratlar, umuman, betakror jumalarni yig'ib, fikrlash, zavqlarini ifodalash, bahslashishga undaydi. Masalan, romandagi

„Men baliqlar singari ko‘l ichida tug‘ilganga o‘xshayman“, „Jindakkina uyqu ichida o‘tgan bir necha daqiqaga shu qadar uzun tushni sig‘dirish – u yerlarni odam juda ham ko‘rgisi kelgan bo‘lishidan emasmikan?“, „Fe‘li bo‘ri bolasiga o‘xshasa-yu, yuzi rassom chizganday chiroyli bo‘lsa!“, „Sevgi degan narsaning roli odamni shu qadar yondirib titratsa, kim biladi, uning o‘zi qanday ekan?“, „Narimonning menga qilgan muomalalari it mushukni erkalaganga o‘xshardi“, „sut bilan kirgan jon bilan chiqadi“, „dugonalarimni bo‘ri ertagidagi singari qanday aldaganim“ kabi tabiat va inson tabiati tasvirlari asar qahramonlarining ruhiyati, taqdiri bilan bog‘liq holda tasvirlangandek taassurot qoldiradi. Ushbu tashbehlarni ajratish uchun guruhlariga quyidagi ko‘rinishdagi tarqatmalar tarqatiladi.



Ushbu shakl ichiga asar matni ichidan o‘zingizga yoqqan o‘xshatish, topib aytilgan so‘z va iboralar, maqollar, jummalarni yozing. O‘zingiz yozgan jumlaning ushbu qahramonning xarakteri va ijtimoiy mavqeyidan kelib chiqqan holda uni izohlashga urinib ko‘ring.



Roman tahlili davomida o‘qituvchi o‘quvchilar e‘tiborini asardagi insonlarga xos bo‘lgan fazilat va illatlarning namoyon bo‘lish jarayoniga qaratadi.

„Domino“ ta’limiy o‘yini. Bu metod uyga vazifani so‘rash qismida o‘tkazilishi mumkin. Dastlab o‘qituvchi Rashod Nuri Gunteginning hayoti va ijodi hamda „Choliqushi“ romani bo‘yicha savol-javob tuzadi. Kartochkalarga savol-javoblarni sinfdagi o‘quvchilar soniga qarab aralash holatda yozib chiqadi. O‘quvchilar guruhlariga bo‘linadi va kartochkalar tarqatiladi. Birinchi o‘quvchi savolni o‘qiydi, qaysi o‘quvchida javobi berilgan bo‘lsa, o‘sha javob beradi va o‘zidagi savolni o‘qiydi. Holat shu tariqa davom etadi. Bu metodni qo‘llashdan maqsad shuki, o‘quvchilarning o‘zaro hurmat va diqqatini jamlash, o‘tilgan mavzu

bo'yicha bilimlarini baholash va darsga barcha o'quvchilarni jalb qilish imkoniyatini beradi.

Rashod Nuri Guntekinning dastlabki asari qanday nomlanadi?	„Xazonrezgi“, „Tamg`a“, „Yashil tun“
Farida bolaligida kim bilan birga ko'chalarda aylanadi?	Murabbiyalar
Farida ilk xotiralari haqida yozganida kimlarni esga oladi?	Bir vazaga barmog`ini tegizib, sindirib qo'yadi.
Adibning dastlabki romanidan so'ng nashr qilingan asarlarini sanab bering.	„Sirli qo'l“ romani
Asarda qaysi obraz „og`ir, vazmin, sal zug`mi ham bor“ deb tasvirlangan?	Xizmatkori Husayn bilan birga
Asarda kimlar „ko'chada yurishni juda yomon ko'rishadi“ deya tasvirlangan?	Mujgon

„**Ibtido va intiho**“ usulidan o'qituvchi Farida obrazini kengroq va chuqurroq ochib berish maqsadida foydalandi. Har bir guruhga ushbu jadvalni taqdim etib, ularni guruhda muhokama qilgan holda to'ldirish topshiriladi.

Faridaning asar ibtidosidagi hayoti		
OILA	DO'STLAR	TABIAT
Ota-onasi enagasi buvisi	xizmatkori Husayn bolalar	Dengizday poyonsiz bir ko'l.

Faridaning asar intihosidagi hayoti		
<i>OILA</i>	<i>DO‘STLARI</i>	<i>TABIAT</i>
Xolalari Komron	Mujgon Mishel, Mari	Dengiz bu mavsumda nihoyatda chiroyli, sokin bo‘ladi.

Ushbu usul orqali o‘quvchilar asar bosh qahramoni haqida mulohaza yuritishga va uni atroflicha tahlil qilishga muvaffaq bo‘ladilar.

„Mushohada“ usuli. O‘quvchilarning darslikda berilgan parcha bilan to‘liq tanishgan yoki tanishmaganligini tekshirish maqsadida ushbu usuldan foydalanish mumkin. Har ikki guruhga romanning turli joylaridan parchalar beriladi. Ushbu parchalar guruhda muhokama qilinib, asarning qaysi qismi ekanligi, asarda ushbu parchaning qanday ahamiyati kasb etganligi, uning davomi haqida o‘z mulohazalarini havola etishlari mumkin. Masalan, 1-guruhga quyidagi parcha berilsin:

1-guruh quyidagicha javob berishi mumkin:

„Choliqushi“ mening o‘zimga ham yoqardi, nimagaki bu nom ko‘p mahal jonimga ora kirardi. Biron nojo‘ya harakatimdan shikoyat qilishsa, bahuzur yelkalarimni uchirib: „Na chora... Choliqushining qo‘lidan boshqa nima kelardi“ – deyardim...

Men qanchalik sho‘x, qanchalik olov bo‘lsam, u shunchalik og‘ir, vazmin. Buning ustiga sl zug‘mi ham bor. Xohlaganini qildiradigan bitta shuning o‘zi desam bo‘ladi. Ba‘zan nasihatlariga parvo qilmay, xohishlariga qarshi chiqsam hamki, yana bo‘ysunishga to‘g‘ri keladi. Nega? O‘zim ham hayronman. Odam bolasi birovni yaxshi ko‘rish halokatiga uchradimi, tamom, o‘shanga qul bo‘lib qoladi.

Rashod Nuri Guntekin hayoti va ijodini o'rgatishda interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalaridan unumli foydalanilsa, ko'zda tutilgan maqsadlarga erishiladi. O'qituvchi bu jarayonda o'quvchining shaxsiy rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Interfaol usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslangan holda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish ko'nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi. Yuqorida keltirilgan zamonaviy metodlar o'quvchida mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga, qobiliyatlarini rivojlantirishga, raqobatbardosh, yetuk shaxs bo'lib tarbiyalanishiga yordam beradi.

2.2. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida „Choliqushi“ romanini qiyoslab o'rgatish

O'zbek va turk romanchiligini kuzatar ekanmiz, adabiyotning ikki buyuk namoyondalari ko'zga tashlanadi. Bulardan biri Abdulla Qodiriy bo'lsa, ikkinchi turk yozuvchisi Rashod Nuri Guntekindir. Ular nafaqat o'z davrining cho'qqiga yetgan yozuvchilari, balki bugunga qadar asarlari qo'ldan tushmaydigan, unutilmas romanlar sohiblari hisoblanadilar.

Rashod Nuri Guntekinning ko'pgina asarlari qahramonlari yoshlardir. U zamon ziddiyatlari haqida fikr yuritadimi yoki Turkiya qishloqlaridagi ahvol, dehqonlar turmushi haqida gapiradimi, bunga ko'proq o'sha davr yoshlarining ko'zi bilan qarashga, Turkiyaning kelajagi bo'lgan yosh ziyolilar aqli bilan yondashishga intiladi. Guntekinga olamshumul shuhrat keltirgan „Choliqushi“ romanida bu narsa yaqqol ko'ringan.

Umuman olganda, mana shu ikki mashhur asar o'zining badiiy mahorati bilan bugungi kungacha durdona asarlar qatoridan joy olib kelmoqda. „Choliqushi“ va „O'tkan kunlar“ romanlari o'zbek va turk romanchiligining nodir asarlari hisoblanib, ulardagi badiiy til xususiyati eskirmas asar bo'lishiga sabab bo'lgan.

Masalan, „O'tkan kunlar“ asarida qo'llanilgan badiiy tasvir vositasini „Choliqushi“ romanida ham, aynan shu ma'noda kelganligini ko'rishimiz mumkin:

„Yusufbek hoji hatmi Qur'on qilib yurtka osh berdi, O'zbek oyim qora kiyib ta'ziya ochdi“.

„Choliqushi“ da:


„Narimonning eri bundan bir yil avval o'lgan. Narimon erini juda ham yaxshi ko'rardi, deyishadi. Shuning uchun u hamisha qora kiyib yurar ekan. Lekin menga shunday tuyuldi, bu xotinning sarg'imga chehrasiga juda ham yarashib tushgan qora kiyimi aza tamom bo'lgandanso'ng yechilguday bo'lsa, uning quruqligi oshkor bo'lib qoladi“.

Bu yerda qora kiyib yurardi, so‘zi motam tutib yurmoq ma’nosida kelmoqda. Demak, yuqoridagi ikki asardan keltirilgan har bir parchada qora so‘zida har ikkala asarda ham motam ma’nosini bildirib kelmoqda.

Badiiy tasvir vositalaridan biri hisoblangan o‘xshatishni asarlarda qiyoslaganimizda, ular orasidagi o‘xshashlik va farqlarni ham ko‘ra olamiz. Masalan „O‘tkan kunlar“da: “Uning qora zulfi par yostig‘ning turlik tomonig‘a tartibsiz suratda to‘zg‘ib, quyuq jinggila kiprak ostidag‘i timqora ko‘zlari bir nuqtag‘a tikilgan-da, nimadir bir narsani ko‘rgan kabi... Qop-qora kamon, o‘tib ketkan nafis, qiyiq qoshlari chimirilgan-da, nimadir bir narsadan cho‘chigan o‘hu kabi...”


„Choliqushi“da:

„Komronning ro‘para kelayotganini ko‘rdim deguncha hurkkan ot singari potirlab qochar, shu ko‘yi ko‘rinish bermay ketar edim“.



Bu ikki asarda bir xil holat, bosh qahramon bo‘lmish qizlarning hurkib qochishi tasvirlangan. Faqat „O‘tkan kunlar“ romanida Kumushning qochishini ohuga o‘xshatsa, „Choliqushi“da bosh qahramon Faridani hurkak otga o‘xshatgan. Yozuvchilar bu o‘xshatishda bosh qahramonlarga nisbatan ikki xil yondashishgan. O‘zbek adabiyotini

kuzatar ekanmiz, go‘zal qizlarni otga o‘xshatganini deyarli uchratmaymiz. Ko‘pincha, o‘hu, jayron kabi so‘zlar ishlatiladi. Lekin turk adabiyotida qizning otga o‘xshatilishini ko‘rib turibmiz. Buning ikki sababi bor:




Birinchidan, turk mentalitetiga xos bo‘lgan otga nisbatan qiziqish, uni go‘zallik timsoli sifatida qabul qilish desak ham bo‘ladi. Ikkinchidan, „Choliqushi“ romanining bosh qahramoni Farida o‘jar, boshqalarga bo‘ysunmaydigan, asov ot singari bir qizdir. Uning o‘hu kabi qochishi kitobxon tasavvurida g‘alizlik uyg‘otar edi. Shu sababli yozuvchi uning harakatlarini asov otning hurkib qochishiga o‘xshatadi. „O‘tkan kunlar“ romani bosh qahramoni Kumush esa ayollarga xos bo‘lgan noz, hayo, mayinlik, shu bilan birga, ojizlik xislatlarini o‘zida mujassam

qilgan obrazdir. Shu sababli uni ohuga o'xshatilishi tabiiy holdir. Farida esa buning aksidir. Demak, bundan shuni anglashimiz mumkinki, bu yerda Rashod Nuri Guntekin faqatgina badiiy tasvir vositasini qo'llabgina qolmay, u yerda bosh qahramonning xarakterini ham inobatga olgan. Farida kabi o'jar, qaysar, sho'x qizning ohu kabi hurkib qochishi biroz haqiqatdan uzoq bo'lar edi¹⁵.

Farida bilan Komron o'rtasidagi munosabatlarni o'zbek adabiyoti tarixidagi asar qahramonlari qismati bilan qiyoslab o'rgatish mumkin. Xususan, Anvar bilan Ra'no o'rtasidagi go'zal insoniy fazilatlar „Choliqushi“ romani bosh qahramonlari tabiatida ham qaysidir shaklda o'z ifodasini topgan. Abdulla Qodiriy „Mehrobdan chayon“ asarida Ra'noning Anvarga bo'lgan iliq munosabati sabablarini yorqin ifodalagan. Uni faqat husnda emas, balki axloq-odobida, ilmda, kamolot egasi bo'lgani uchun hurmat qiladi, ishonchli, dilkash kishisi sifatida g'amxo'rlik qiladi, har bir harakatida, muloqotida Anvarga bo'lgan sadoqatini, sevgisini namoyish etadi.

Shu fazilatlari bilan Anvarni o'ziga maftun etadi.



„Choliqushi“ romanida hamma bolalar bilan janjal-g'avg'olar ko'taradigan Farida bo'lasi Komronga yo'liqqanida boshqacha bo'lib qoladi, hamma bolalarga qiladigan qiliqlarini qila olmaydi. „Qarindosh bolalar orasida faqat bittasidan tortinar, o'shandangina hayiqar edim“.

„Mehrobdan chayon“ romanining bosh obrazlaridan biri bo'lgan Anvar bilan mazkur asarimizdagi Komron obrazining bolaligidagi xarakter xususiyatlari bir-biriga o'xshab ketadi:

„Anvar yoshlig'ida bo'shangg'ina bir bola edi. O'z tengi bolalar bilan oz aloqa qilar, ularga kam aralashar va ortiqcha o'ynab-kulmas, hamisha uning ko'zida mung yotar edi. Anvar yosh bo'lsa ham jiddiy va kichkina miyasi muhokamaga qobil, boshqa kishilar ustiga tushkan baxtsizlikdan ham mutaassur bol'g'uchi edi. Bola chog'idanoq eng yaxshi ko'rgan narsasi gulzor va undagi gullar edi“.



¹⁵ <https://fayllar.org/toshkent-sharqshunoslik-instituti>

Guntekin o‘z asarida Komronning bolaligini tasvirlar ekan, unga Farida tilidan quyidagicha ta’rif beradi:

„U Basima xolamning o‘g‘li Komron edi. Ammo uni bola deyish uncha to‘g‘ri kelmaydi. Avvalo, yoshi mendan ancha ortiq, qolaversa, juda odobli, vazmin. Bolalarga qo‘shilishni yoqtirmaydi. Qo‘llarini cho‘ntaklariga suqib olib, yo dengiz bo‘yida o‘zi yolg‘iz aylanib yuradi, yo bo‘lmasa daraxtlar soyasida kitob o‘qib o‘tiradi“.

„Ikki qismli kundalik daftar“ metodi. Ushbu metod o‘quvchilarga matn mazmunini o‘z shaxsiy tajribasi bilan chambarchas bog‘lash, o‘zining tabiiy qiziquvchanligini qondirish imkonini beradi. Ayniqsa, o‘quvchilar „Choliqushi“ asari matnini uyda, o‘quv auditoriyasidan tashqarida o‘qib chiqish topshirig‘ini olishganida ikki qismli kundalik daftarlar foydalidir. Buning uchun o‘quvchilar toza (yozilmagan) qog‘oz varag‘ining o‘rtasidan tik chiziq o‘tkazib, uni ikki qismga ajratishlari kerak. Qog‘ozning chap tomonida matnning qaysi qismi ularga eng ko‘p taassurot qoldirganini qayd etishadi. Ehtimol, u qandaydir xotirani uyg‘otar yoki hayotida yuz bergan voqealarni esga tushirar, yoki shunchaki taajjubga solar. Ularning qalbida keskin norozilik hissini uyg‘otar. Ular shartli kundalikning o‘ng tomonida voqealar bayoniga sharh berishlari kerak bo‘ladi: ayni shu jumlani yozishga ularni nima majbur etdi? Ularda qanday fikrlar uyg‘otdi? Ularda qanday savol tug‘ildi? O‘quvchilar matnni o‘qirkan, vaqti-vaqti bilan o‘zlarining fikrlarini yozib borishlari kerak. Masalan:

„Ikki qismli kundalik“ metodi

„Ilk bolalik xotiralaringsizni tasvirlab bering“, – deydi.	
Jindakkina uyqu ichida o‘tgan bir necha daqiqaga shu qadar uzun tushni sig‘dirish – u yerlarni odam juda ham ko‘rgisi kelgan bo‘lishidan emasmikan?	

Maktabga qo‘ygan birinchi qadami.	
...	

„Choliqushi“ romanida keltirilgan dastlabki voqea – o‘qituvchi Aleksii opaning bergan topshirig‘i bizning o‘quvchilarimizni ham beixtiyor o‘ylantirishi mumkin. O‘qituvchi o‘z shogirdlariga „Ilk bolalik xotiralariningizni tasvirlab bering“, – deb murojaat qiladi. O‘quvchilar sinfda qog‘ozning chap tomoniga bu mana shu jumlaning yozib, o‘ng tomoniga o‘zlarining yodida saqlanib qolgan ilk xotiralarini tushiradilar.

„Jindakkina uyqu ichida o‘tgan bir necha daqiqaga shu qadar uzun tushni sig‘dirish – u yerlarni odam juda ham ko‘rgisi kelgan bo‘lishidan emasmikan?“ jumlasini ham o‘quvchilarni o‘ylantirishi mumkin.

Asarda Faridaning otasi buvisi vafot etgandan so‘ng qizini maktabga olib boradi. Ilk bor maktabga borganda qanday voqealar sodir bo‘lganini aytib beradi. „Maktabga qo‘ygan birinchi qadamim“ jumlasini o‘quvchilar qog‘ozga yozib, o‘ng tarafiga sharh yozishi mumkin.

O‘quvchilar yakka tarzda ham, guruhlariga bo‘lingan holda ham javob berishlari mumkin. Bunda bittadan fikrni va unga berilgan izohni o‘qish taklif etiladi. Fikrlar va ularning izohi o‘qilayotganda savol berish yoki mazkur g‘oyaga o‘z izohini qo‘shishga ruxsat etiladi.

Umuman, mazkur metodni qo‘llashdan maqsad o‘quvchilarda o‘rganilayotgan mavzuga qiziqish uyg‘otish, yozma nutqni rivojlantirishga yordam beradi.

O‘zbek va turk adabiyotining bir-biriga o‘xshash tomoni shundaki, har ikki millat ham mentalitet, ham urf-odat jihatidan bir-biriga yaqin hisoblanadi. Turkiy xalq hisoblangan bu ikki millatning o‘xshash tomonlari ularning adabiyotida ham aks etadi. Chunki adabiyot o‘sha xalqning dunyoqarashi, urf-odatlari, mentalitetining ko‘zgusidir. „Choliqushi“ romanidagi obrazlar o‘rtasidagi munosabatlar, badiiy tasvir vositalarini o‘zbek adabiyoti tarixidagi, ayniqsa, avvalgi sinflarda o‘qitilgan asarlarning aynan shunga yaqin qahramonlar qismati bilan qiyoslab o‘rgatish

o‘rinlidir. Bunday tasavvur o‘quvchilarda qardosh xalqlarning asarlari va ulardagi obrazlar bilan bilan solishtirib, qiyoslab o‘rganish malakasini hosil qiladi. Qolaversa, o‘quvchilarda darslikdagi „Choliqushi“ romanidan taqdim etilgan parchaning davomini o‘qishga, asar qahramonlarining taqdiri qanday yakun topishini bilishga qiziqish va ishtiyoq tug‘iladi. Badiiy asarlarni bir-biri bilan solishtirib, qiyoslab o‘rgatish usuli o‘quvchilarda romanni to‘liq o‘qishiga rag‘bat uyg‘otadi.

III BOB. BITIRUV MALAKAVIY ISHINING AMALIYOTGA TATBIQI

3.1. Umumta'lim maktablari dastur va darsliklarida Rashod Nuri Guntekin hayoti va ijodining berilishi

Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim-tarbiyaga juda katta e'tibor qaratilmoqda. O'quvchilarni bilimli, dunyoqarashi keng, sog'lom firкли qilib tarbiyalash biz pedagoglar zimmasidadir. Yosh avlodning hayotga muhabbat, yurtiga sadoqatli, ota-onasiga mehribon bo'lib ulg'ayishida adabiyot fanining o'rni alohida sezilib turadi. Badiiy asarlar o'quvchilarni nafaqat bilim olishga, balki hayotga boshqacha, kengroq nazar solishga undaydi. Badiiy asarlarni o'quvchiga to'la-to'kis yetkazib berish va o'quvchilarni kitob o'qishga, badiiy adabiyotdan zavqlanishga o'rgatishda adabiyot fani o'qituvchilarining o'rni alohida ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, adabiyot – millat va mamlakat tarixining jonli ifodasi. Biz badiiy asarlarni o'qir ekanmiz xoh u tarixiy, xoh zamonaviy mavzuda yozilgan asar bo'lsin, uning asosini tarixiy voqealar, bugungi hayotimizda sodir bo'layotgan hodisalar tashkil etadi. Shuning uchun ham adabiyot darslariga noan'anaviy dars turlarini olib kirish va uni ta'lim mazmuniga singdirish, dars o'tishning yangi usullarini topish va shu orqali o'quvchi ongini o'stirish davlat ta'lim standartlari talablarini bajarishga yordam beradi.

Dars o'tish o'qituvchiga qulay va jonli bo'lishi uchun turli ko'rgazmali qurollar ishlab chiqish, ulardan o'z vaqtida va o'rnida foydalanishga harakat qilish orqali oldimizga qo'ygan maqsadimizga erishishimiz mumkin. Murakkab mavzularni o'quvchilar ongiga osongina yetkazish uchun hozirgi kunda „Aqliy hujum“, „Zakovat“, „Modul dars“, „Zigzak“, „Interfaol“, „O'yin dars“, „Munozarali – bahsli dars“, „Sayohat dars“, „Musobaqa dars“, „Suhbat dars“ kabi usullardan foydalanish maqsadga muvofiq. Darslarda o'zimiz o'rgatgan manbalardan, savollar yoki testlardan unumli foydalanamiz. Ta'lim har doim takomil va yangilanishga mushtoqdir. Shuning uchun, iloji boricha, ta'limning yangi usullari ustida izlanishimiz talab etiladi. Chunki o'quvchilarga faqat bir xil qolipdagi darslar

yoqmasligi, ularni zeriktirib qo'yishlari aniq va ravshan bo'lib bormoqda. Natijada o'quvchi darsni yaxshi o'zlashtira olmaydi. Har bir usuldagi darslar ikki-uch marta o'tilgandagina o'zini oqlaydi. Me'yoridan oshmasligi, o'quvchilarni zeriktirmasligi uchun usullarning turlicha bo'lishi darsning samaradorligini yanada oshiradi. Dars jarayonlarida notiqlik, suhbat, hikoya, badiiy asar tahlili, yozma ish, uy inshosi, mavzularni zamon bilan bog'lash, mustaqil fikrga tayanib ish ko'rish shakllariga katta e'tibor berishimiz lozim. Har bir o'tilayotgan darsga o'quvchilarning qiziqishi va ular tomonidan berilayotgan baho biz uchun qadrlidir.

„Noan'anaviy dars o'qituvchi va o'quvchining erkin muloqoti va o'quvchi shaxsini shakllantirishning eng samarali usulidir“. Shundan kelib chiqqan holda noan'anaviy darsga qo'yiladigan asosiy talablar esa quyidagilardan iborat: a) o'quvchilarga mustaqil fikr yuritishni o'rgatish; b) o'quvchi fikrini bir nuqtaga jamlash; v) o'quvchilarda fan asoslari, yutuqlari to'g'risida aniq tushuncha hosil qilish; g) olgan bilimlarini amaliyotda qo'llash va boshqalarga o'rgatish va hokazo.

Rashod Nuri Guntekinning „Choliqushi“ romani jahon miqyosidagi shuhratiga yangi shuhrat qo'shdi. O'rta maktabning 11-sinf o'quvchilarida yuksak insoniy sifatlar shakllantirishga xizmat qilishi jihatidan tengsiz imkoniyatga ega asarlaridan biridir. Asarda qanoat, kamtarlik, rahm-shafqat, bag'rikenglik singari ezgu fazilatlar shafqatsizlik, manfaatparastlik kabi illatlarga qarshi qo'yib tasvirlanadi. Betakror uslubda bitilgan bu asar matni o'qituvchi tomonidan o'qib berilishi maqsadga muvofiqdir. O'qituvchi roman matnini soatlarga taqsimlab, qaysi qismi qachon o'qilishi lozimligini rejalashtirib olishi lozim. Buning uchun asar matni muayyan bo'laklarga ajratilishi ham, ona tili bilan adabiyot soatlarini birlashtirib to'lig'icha o'qilishi ham mumkin. Har qanday matnning badiiyligini ta'minlagan asosiy jihat uning yaxlitligi bo'lgani uchun ham asar bilan tanishish va uni tahlil etishda shu butunlikni saqlab qola bilish zarur.

Umumta'lim maktablarida Rashod Nuri Guntekin hayoti va ijodini zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ilg'or xorijiy tajribalar asosida o'qitish ham

o'qituvchidan o'ziga xos bilim hamda malakani talab qiladi. 11-sinfda o'quvchilar adibning „Choliqushi“ romani bilan tanishadilar.

Umumta'lim maktablarining adabiyot fanidan o'quv dasturida 11- sinfda Rashod Nuri Guntekin hayoti va ijodi hamda „Choliqushi“ romanini o'rgatish uchun 3 soat vaqt ajratilgan. Unda quyidagi ma'lumotlarni o'rganish tavsiya etilgan:

Rashod Nuri Guntekinning hayoti va ijodi haqida qisqacha ma'lumot. Yozuvchining XX asr jahon adabiyoti taraqqiyotida tutgan o'rni „Choliqushi“ asari haqida ma'lumot (1 soat).

„Choliqushi“ romanida tasvirlangan muhit. Faridaning hayot yo'li orqali Birinchi jahon urushi davridagi turk xalqi hayotidagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy muammolarning aks ettirishi. (1 soat).

Farida obraziga xos bo'lgan insoniy fazilatlar. Faridaning samimiyati, ochiq ko'ngilliligi, shijoati, to'g'riligi, sadoqati kabi betakror qirralari. Faridaning dard-u alamlari, quvonchlari, iztiroblari (1 soat).

Umuman, ta'lim bosqichlarida Rashod Nuri Guntekin hayoti va ijodini o'quvchilarning qiziqishlari va yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda turli xildagi o'quv topshiriqlar hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'rgatish o'qituvchilarning o'z oldilariga qo'ygan maqsadlariga to'liq yetishishlariga va darsdan kuzatilgan natijalarga erishishlariga, natijada yosh avlodning ma'naviy barkamol insonlar sifatida kamol topishiga yordam beradi.

3.2. Rashod Nuri Guntekin hayoti va ijodini o‘rgatish bo‘yicha namunaviy dars ishlanmalari

Mavzu: Rashod Nuri Guntekin hayoti va ijodi. „Choliqushi“romani

Fan nomi : Adabiyot

Sinf: 11- sinf

Dars mavzusi: Rashod Nuri Guntekin hayoti va ijodi.

Dars maqsadi:

Ta’limiy: o‘quvchilarga Rashod Nuri Guntekin hayot yo‘li va ijodi haqida yangi bilim berish.

Tarbiyaviy: o‘quvchilarning umumiy savodxonligini yanada rivojlantirish.

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarni o‘z-o‘zini rivojlantirishga o‘rgatish, mavzu yuzasidan olgan bilimlarini hayotiy vaziyatlarga qo‘llay bilishiga erishish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi.

Dars uslubi: Noan’anaviy.

Darsda qo‘llanilgan metodlar: „Insert“, „Ikki varaqli kundalik“, „Tanqidiy fikrlash“.

Dars jihozlari: darslik, mavzuga oid adabiyotlar, slaydlar, tarqatma materiallar.

Dars rejasi:

Tashkiliy qism – 2 daqiqa.

O‘tilgan mavzuni takrorlash – 15 daqiqa

Yangi mavzu: Rashod Nuri Guntekin. „Choliqushi“ romani – 10 daqiqa.

Yangi mavzuni mustahkamlash – 15 daqiqa.

O‘quvchilar bilimini baholash rag‘batlantirish – 2 daqiqa.



Uyga vazifa berish – 1 daqiqa.

I. Tashkiliy qism: O‘quvchilar bilan salomlashiladi. O‘quvchilar davomati jurnalga qayd etilgach, o‘quvchilar uch guruhga bo‘lib olinadi hamda darsga tayyorgarligi tekshiriladi.

II. O‘tilgan mavzuni takrorlash: O‘qituvchi O‘tilgan mavzuni so‘rash maqsadida „Insert“ metodidan foydalanadi. Har bir bir guruhga „Choliqushi“ romani haqida matn beriladi. O‘quvchilar matn bilan tanishib chiqadilar va quyidagi jadvalni to‘ldiradilar. So‘ngra butun guruh nimalar o‘rganildi, qanday savollar yuzaga keldi, o‘qituvchi bilan birgalikda muhokama qilinadi.

V bilganlarim ni tasdiqlaydi	+ yangi axborot	- bilganlarim ga zid keladi	? meni o‘ylantirib qo‘ydi

III. Yangi mavzu bayoni: Rashod Nuri Guntekin hayoti va ijodi va „Choliqushi“ romani AKTdan foydalangan holda slaydlar orqali ko‘rsatilib, tushuntirib beriladi.



IV. Mustahkamlash:

„Ikki qismli kundalik“ metodidan foydalangan holda Rashod Nuri Guntekin hayoti va ijodiga oid ma’lumotlar yoziladi. Topshiriq tugagandan keyin o‘quvchilar yozgan izohlarini o‘qiydilar. Ularning izohi o‘qilayotganda savol berish yoki o‘z izohini berishga ruxsat etiladi.

Rashod Nuri Guntekin hayoti va faoliyatiga oid ma’lumotlar	Rashod Nuri Guntekin ijodiga oid ma’lumotlar

Siz ham o‘z xotiralaringizni yozib borasizmi? Yoki bunday fikr sizda endi uyg‘ondingizmi?

V. Dars yakuni. Baholash. Darsda faollik ko‘rsatgan o‘quvchilar baholanib boriladi.

VI. Uyga vazifa: Rashod Nuri Guntekin hayoti va ijodi haqida so‘zlab bering.

Mavzu: „Choliqushi“ romanida tasvirlangan muhit

Fan nomi : Adabiyot

Sinf: 11- sinf

Dars mavzusi: „Choliqushi“ romanida tasvirlangan muhit.

Dars maqsadi:

Ta’limiy: o‘quvchilarga „Choliqushi“ romani haqida yangi bilim berish.

Tarbiyaviy: o‘quvchilarni kitob mutolaa qilishga qiziqtirish, milliy istiqlol g‘oyasini singdirish, milliy g‘urur, milliy iftixor tuyg‘ularini shakllantirish.

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarni o‘z-o‘zini rivojlantirishga o‘rgatish, mavzu yuzasidan olgan bilimlarini hayotiy vaziyatlarga qo‘llay bilishiga erishish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi.

Dars uslubi: Noan’anaviy.

Darsda qo‘llanilgan metodlar: „Qora quti“, „Raqamlarda savol bor“, „Impuls – plakat“

Dars jihozlari: darslik, mavzuga oid adabiyotlar, slaydlar, tarqatma materiallar, multimedia vositalari.

Dars rejasi:

Tashkiliy qism – 2 daqiqa.

O‘tilgan mavzuni takrorlash – 10 daqiqa

Yangi mavzu: „Choliqushi“ romanida tasvirlangan muhit – 10 daqiqa.

Yangi mavzuni mustahkamlash – 20 daqiqa.

O‘quvchilar bilimini baholash rag‘batlantirish – 2 daqiqa.

Uyga vazifa berish – 1 daqiqa.

I. Tashkiliy qism: O‘quvchilar bilan salomlashiladi. O‘quvchilar davomati jurnalga qayd etilgach, o‘quvchilar uch guruhga bo‘lib olinadi hamda darsga tayyorgarligi tekshiriladi.

II. O‘tilgan mavzuni takrorlash:

„Qora quti“ metodi orqali uyga vazifa so‘raladi. Bu usulda o‘quvchilarga Rashod Nuri Guntekin hayoti va ijodiga oid ma’lumotlar aralashtirilib beriladi. O‘quvchilar yozuvchi hayoti va ijodiy faoliyatiga xos ma’lumotlarni topib, taalluqli bo‘lmaganlarini o‘chirishadi va „Qora quti“ga tashlaydilar. Berilgan ma’lumotlardan faqatgina Rashod Nuri Guntekinga oidlari tanlab olinadi. So‘ngra shu ma’lumotlar asosida yozuvchi haqida so‘zlab beradilar.

III. Yangi mavzu bayoni: „Choliqushi“ romanidagi tasvirlangan muhit AKTdan foydalangan holda slaydlar orqali ko‘rsatilib, tushuntirib beriladi.

Rashod Nuri Guntekinning „Choliqushi“ romanining bosh qahramoni Farida ekanligini bilib oldingiz. Faridaning maktabdagi o‘qish yillari va shu muhitda turli sarguzashtlarni boshidan kechirgani, ba’zan turli qiziqchilik uchun atay hazillar boshlashlari – bularning barcha-barchasi roman sahifalari miqdori ko‘paygan sari o‘quvchining ushbu shaddod qahramon to‘g‘risidagi tasavvurini to‘ldirib, yaxlitlashtira boradi. Bolalik va yoshlikning beg‘ubor damlaridagi yoshgina qizning birovlar xayoliga kelmagan ishlarga bosh urishi, deylik, daraxtlar ustida bamisoli chaqqon mushukdek shoxdan shoxga sakrab o‘tishlari obraz tabiatining individualligini namoyon qiladi.

Roman boshlanishidagi yosh qizning hayot yo‘li bora-bora Birinchi jahon urushi davridagi turk xalqi hayotidagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy muammolar foniga olib o‘tiladi. Roman faqatgina Farida bilan Komron orasidagi ishq-muhabbat bayonidangina iborat emas, balki oddiy xalqning turmush tarzi, boshidan kechirgan mashaqqatlari, insonlararo murakkab munosabatlarini haqqoniy yoritishi jihatidan ham muhim sanaladi.

IV. Mustahkamlash:

„Choliqushi“ romani bo'yicha o'quvchilarning bilimini mustahkamlash maqsadida „Raqamlarda savol bor“ metodi qo'llaniladi. O'quvchilar raqamlar yozilgan tarqatmalarni olishadi. Ixtiyoriy bir raqamni aytadilar va monitorda raqamlarda yashiringan savollar chiqadi.

	1		2		3		4	
5		6		7		8		9

O'qituvchi monitor orqali quyidagi savollarni ko'rsatadi. O'quvchilar savollarga javob beradi va o'z fikrini bayon qiladi.

1

Rashod Nuri Guntekinning dastlabki virik asari qanday nomlanadi?

2

Faridaning onasi otasidan nimani hamisha yashirib yuradi?

4

Farida ilk xotiralari haqida yozganida kimlarni esga oladi?

5

Buvisining vafotidan kevin Faridani kim qaramog'iga oladi?

3

Komron nima uchun Faridaga hadyalar olib kelar edi?

6

Faridaning maktabga borgan ilk kunida qanday voqea sodir bo'ladi?

7

Asarda qaysi obraz “og'ir, vazmin, sal zug'mi ham bor” deb tasvirlangan?

8

Maktabda nima uchun Faridani „Choliqushi“ deb atavdigan bo'lishadi?

9

Romanda qaysi obrazning “chorbog'ga kelgan kunlari katta voqea hisoblanardi” deb tasvirlangan?

„Impuls – plakat“ metodidan foydalangan holda o‘quvchilarning darsga bo‘lgan munosabati so‘raladi. Har bir ishtirokchi uchun vatman varaqlari va markerlar kerak bo‘ladi. Stollarning ustiga oxirigacha yetkazilmagan fikrlar yozilgan plakatlar qo‘yiladi: „Ushbu mavzuda hammasidan meni ko‘proq ...qiziqtiradi“, „men shuni aniqlashtirmoqchi edimki, ...“, „Men orttirgan bilimlarimni ... qo‘llayman“, „Ushbu mavzuni o‘rganish jarayonida men ... erishdim“, „Men ... to‘g‘risida ko‘proq bilib olmoqchi edim“, „Men uchun ... murakkab bo‘ldi“, „Menga ... yoqdi“.

O‘quvchilar o‘z javoblarini yozishadi va fikrlarini bayon qiladi.

V. O‘quvchilarni baholash. Darsda faol ishtirok etgan o‘quvchilarning guruhlarda yiqqan ballari e‘lon qilinadi va guruhlar rag‘batlantiriladi, o‘quvchilar baholanadi.

VI. Uyga vazifa: „Choliqushi“ romanini o‘qib kelish.

Mavzu: Farida obraziga xos bo‘lgan insoniy fazilatlar

Fan nomi : Adabiyot

Sinf: 11- sinf

Dars mavzusi: Farida obraziga xos bo‘lgan insoniy fazilatlar.

Dars maqsadi:

Ta’limiy: o‘quvchilarga „Choliqushi“ romani, uning badiiy jihatlari haqida yangi bilim berish.

Tarbiyaviy: o‘quvchilarni kitob mutolaa qilishga qiziqtirish, milliy istiqlol g‘oyasini singdirish, milliy g‘urur, milliy iftixor tuyg‘ularini shakllantirish.

Rivojlantiruvchi: o‘quvchilarni o‘z-o‘zini rivojlantirishga o‘rgatish, mavzu yuzasidan olgan bilimlarini hayotiy vaziyatlarga qo‘llay bilishiga erishish.

Dars turi: yangi bilim beruvchi.

Dars uslubi: Noan’anaviy.

Darsda qo'llanilgan metodlar: „Domino“, „SWOT“ tahlil metodi, „Detektiv“.

Dars jihozlari: darslik, mavzuga oid adabiyotlar, slaydlar, tarqatma materiallar, multimedia vositalari.

Dars rejasi:

Tashkiliy qism – 2 daqiqa.

O'tilgan mavzuni mustahkamlash – 10 daqiqa

Yangi mavzu: – 10 daqiqa.

O'tilgan mavzuni mustahkamlash – 20 daqiqa.

O'quvchilar bilimini baholash rag'batlantirish – 2 daqiqa.

Uyga vazifa berish – 1 daqiqa.

I. Tashkiliy qism: O'quvchilar bilan salomlashiladi. O'quvchilar davomati jurnalga qayd etilgach, o'quvchilar uch guruhga bo'lib olinadi hamda darsga tayyorgarligi tekshiriladi.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash :

Uyga vazifa „Domino“ ta'limiy o'yini orqali so'raladi. Guruhlarga kartochkalar tarqatiladi. Birinchi o'quvchi savolni o'qiydi, qaysi o'quvchida javobi berilgan bo'lsa, o'sha javob beradi va o'zidagi savolni o'qiydi. Holat shu tariqa davom etadi. Namuna:

Rashod Nuri Guntekinning
dastlabki asari qanday nomlanadi?

Xazonrezgi", "Tamg'a",
"Yashil tun"

Farida ilk xotiralari haqida
yozganida kimlarni esga oladi?

Bir vazaga barmog'ini
tegizib, sindirib qo'yadi.

Adibning dastlabki romanidan so'ng
nashr qilingan asarlarini sanab bering.

„Sirli qo'l“ romani

Asarda qaysi obraz "og'ir, vazmin,
sal zug'mi ham bor" deb tasvirlangan?

Xizmatkori Husayn bilan
birga

Asarda kimlar “ko‘chada yurishni juda yomon ko‘rishadi” deya tasvirlangan?

Mujgon

III. Yangi mavzu bayoni: Farida obraziga xos bo‘lgan insoniy fazilatlar AKTdan foydalangan holda slaydlar orqali ko‘rsatilib, tushuntirib beriladi.

„Choliqushi“ romanining asosiy qahramoni Turkiya Jumhuriyati uchun o‘rnak bo‘la oladigan obrazdir. Farida bolalikdan o‘zini hech kimga xafa qildirmagan, o‘z haqqini himoya qila olgan, kirishimli, zamonaviy bir qiz bo‘lgan. Farida tug‘ma juda go‘zal qiz bo‘lgan. Yuzy tabiiy holatda ham pardo qilganday chiroyli edi. Shuning uchun ham uni tanigan va tanimaganlar „Choliqushi“, „Gul ba shakar“, „Ipak qurti“ degan nomlar bilan atagan. Asarni o‘qish davomida Faridaning samimiyati, ochiq ko‘ngilliligi, shijoati, to‘g‘riligi, sadoqati kabi betakror qirralariga guvoh bo‘lasiz.

IV. Mustahkamlash:

„SWOT“ tahlil metodidan foydalangan holda Faridaning kuchli tomonlari, kuchsiz tomonlari, imkoniyatlari va bunga to‘siq bo‘luvchi omillarni aniqlash vazifasi topshiriladi. Shundan so‘ng o‘quvchilarning o‘z mustaqil qarashlari tinglanadi, bahs-munozara uyushtiriladi, ularning ijodiy fikrlash va o‘z fikrini isbotlash malakalari rivojlantiriladi.

„Detektiv“ ta’limiy o‘yini orqali „Choliqushi“ romanida tasvirlangan portret lavhalarini aniqlash topshirig‘i beriladi. Topshiriqqa yozma ravishda javob beradi. So‘ngra o‘quvchilar asar qahramonlari haqida o‘z fikrlarini bayon qiladilar. Reglament vaqti 10 daqiqa. Namuna:

„ ... sochlari jingalak, sarg‘ish yuzi esa nozik, oppoq, yarqiroq. Shunchalar yarqiroqki, yuragim chopsa-yu, quloqlariga yopishib olib, yaqindan betlariga qarasam... “. (Komron)

„ ... og‘ir, vazmin, sal zug‘mi ham bor. Xohlaganini qildiradigan bitta shuning o‘zi. Ba‘zan nasihatlariga parvo qilmay, xohishlariga qarshi chiqsam hamki, yana bo‘ysunishga to‘g‘ri keladi“. (Mujgon)

V. O‘quvchilarni baholash. Darsda faol ishtirok etgan o‘quvchilarning guruhlarda yiqqan ballari e‘lon qilinadi va guruhlar rag‘batlantiriladi, o‘quvchilar baholanadi.

VI. Uyga vazifa: „Faridaga maktub“ mavzusida kichik ijodiy matn yozing.

XULOSA

O'quvchining shaxsiy sifatlarini shakllantirishda adabiyot fani hal q iluvchi ahamiyatga ega. Yozuvchining ijod dunyosiga kirishi va shu orqali bola ongi va didini o'stirish asosiy maqsad hisoblanadi. Darslik va majmualardan o'rin olgan o'zbek va jahon adabiyoti durdonalarining o'quvchi fikrini boyitish va hissiyotlarni tarbiyalashda ahamiyatlidir.

Rashod Nuri Guntekin turk adabiyotining zabardast vakili. Yozuvchi o'z asarlarida o'sha davrdagi jamiyat hayotiga xalaqit bermasdan xalq hayotidan kelib chiqib odamlar hayotini tasvirlashi bilan izohlanadi. Hozirgi kunda Turkiyaning ko'plab mintaqalaridagi maktab, teatr va ko'chalarga adib nomi berilgan.

Umumta'lim maktablarida Rashod Nuri Guntekin hayoti va ijodini zamonaviy interfaol metodlar vositasida o'rgatish o'quvchilarni ma'naviy barkamol insonlar sifatida tarbiyalashda muhim vazifa bajaradi. Shuning uchun ham maktab adabiyot dastur va darsliklari tinimsiz o'zgarib turgan hozirgi sharoitda adib asarlarini o'rgatish nazardan chetda qolmasligi kerak. Yozuvchi asarlari o'quvchilarning yosh va ruhiy xususiyatlariga qanchalik mos kelishini hisobga olib ish ko'rish katta didaktik ahamiyat kasb etadi. Zero, o'quvchilarga o'z vaqtida va kerakli miqdorda berilgan badiiy ozuqagina oson yuqadi hamda yoshlarda ezgu ma'naviy sifatlar qaror topdirishga xizmat qiladi.

Yozuvchining hayoti va ijodi hamda „Choliqushi“ romanini o'rgatishga bag'ishlangan dars mashg'ulotlarida ilg'or xorijiy tajriba va an'analardan samarali foydalanish dars sifatining oshishiga hamda darsdan kutilgan maqsadning to'liq amalga oshishiga bevosita xizmat qiladi. Ular o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro faol munosabatlarida tashkil etiladigan mashg'ulot turidir. Bu orqali o'qituvchi va o'quvchi o'zaro hamkorlikda ishlaydi. O'quvchining erkin fikrlash jarayoni yangi pog'onaga ko'tariladi. O'qituvchi shu tarzda o'quvchilarni faollashtiradi, o'zlashtirishi past o'quvchilar dunyoqarashi va tafakkurini boyitib boradi.

Interfaol usullarni qo'llash natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o'z fikrini bayon qilish, uni asoslangan holda himoya qila

bilish, sogʻlom muloqot, munozara, bahs olib borish koʻnikmalari shakllanib, rivojlanib boradi. Yuqorida keltirilgan zamonaviy metodlar oʻquvchida mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirishga, qobiliyatlarini rivojlantirishga, raqobatbardosh, yetuk shaxs boʻlib tarbiyalanishiga yordam beradi.

Oʻzbek va turk adabiyotining bir-biriga oʻxshash tomoni shundaki, har ikki millat ham mentalitet, ham urf-odat jihatidan bir-biriga yaqin hisoblanadi. Turkiy xalq hisoblangan bu ikki millatning oʻxshash tomonlari ularning adabiyotida ham aks etadi. Chunki adabiyot oʻsha xalqning dunyoqarashi, urf-odatlari, mentalitetining koʻzgusidir. „Choliqushi“ romanidagi obrazlar oʻrtasidagi munosabatlar, badiiy tasvir vositalarini oʻzbek adabiyoti tarixidagi, ayniqsa, avvalgi sinflarda oʻqitilgan asarlarning aynan shunga yaqin qahramonlar qismati bilan qiyoslab oʻrgatish oʻrinlidir. Bunday tasavvur oʻquvchilarda qardosh xalqlarning asarlari va ulardagi obrazlar bilan bilan solishtirib, qiyoslab oʻrganish malakasini hosil qiladi. Qolaversa, oʻquvchilarda darslikdagi „Choliqushi“ romanidan taqdim etilgan parchaning davomini oʻqishga, asar qahramonlarining taqdiri qanday yakun topishini bilishga qiziqish va ishtiyoq tugʻiladi. Badiiy asarlarni bir-biri bilan solishtirib, qiyoslab oʻrgatish usuli oʻquvchilarda romanni toʻliq oʻqishiga ragʻbat uygʻotadi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishimizdan oʻrin olgan barcha metod va usullar oʻquvchilarni teran fikrlashga, asar gʻoyasini tushunishga va shu orqali oʻquvchilarning tarbiyalanishida muhim rol oʻynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
2. Mirziyoyev Sh. M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – Toshkent: O'zbekiston, 2018.
3. Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. – Toshkent: O'zbekiston, 2009.
4. Karimov I.A. Barkamol avlod-O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq, 1997.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: 2008.
6. Alimov N. Jahon adabiyotining eng buyuk asarlari. – Toshkent, 2019.
7. Avlayev O.U. Ta'lim metodlari. – Toshkent: „Navro'z“, 2017.
8. Ibragimova M., Shermatova H. Ta'lim jarayonida faol usullarni qo'llash. Uzluksiz ta'lim. – Toshkent: „Sharq“, 2005.
9. Ishmuxamedov R., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2018.
10. Matjon S. Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar. –Toshkent: “O'qituvchi“, 1996
11. Qodiriy A. O'tkan kunlar.– Toshkent: „Sharq“, 2002.
12. Rashod N.G. Choliqushi. – Toshkent: „Sharq“. 2016.
13. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. –Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010.
14. To'xliyev B., Karimov B., Usmonova K.. Adabiyot. O'rta ta'lim muassasalarining 11- sinfi va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari uchun darslik majmua. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2018.

15. Choriyeva Z. T. Abdulla Qodiriyning „O‘tkan kunlar“ romanidagi maktublarning lug‘aviy-ma’naviy uslubiy xususiyatlari. – Toshkent, 2006.

16. <https://www.academia.edu>
17. <https://www.aim.uz>
18. <https://book.uz>
19. <https://www.daryo.uz>
20. <https://eduportal.uz>
21. <https://www.fayllar.org>
22. <https://www.library.uz>
23. <https://www.khdavron.uz>
24. <https://hozir.org>
25. <https://kitobxon.com>
26. <https://www.kutubxona.uz>
27. <https://www.qomus.info>
28. <https://www.saviya.uz>
29. <https://www.taqvim.uz>
30. <https://turklib.ru>
31. <https://t.me.mutolaa.sehri>
32. <https://uz.eyewated.com>
33. <https://www.ziyo.uz>
34. <https://www.uz.m.wikipedia.org>

Taxiatosh tumani XTBga qarashli 3-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining o'zbek tili fani amaliyot o'qituvchisi Saburova Qunduzning 2021-yil 21-aprel kuni 10- „V“ sinfda „Rashod Nuri Guntekin hayoti va ijodi“ mavzusida o'tgan sinfdan tashqari mashg'ulot shaklidagi bitiruv-malakaviy ishining tajriba-sinov darsi muhokamasi.

BAYONNOMASI

21.04.2021

Taxiatosh shahri

Qatnashdilar: Taxiatosh tumani 3-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari A.Matniyazov (rais), o'zbek tili o'qituvchilari: Nargiza Kalillayeva (metod birlashma raisi), Nigora Abdurasulova, Dilfuza Klicheva, Nargiza Aytniyazova (kotiba), amaliyot o'qituvchisi Saburova Qunduz.

KUN TARTIBI:

Amaliyot o'qituvchisi Saburova Qunduzning 10- „V“ sinfda „Rashod Nuri Guntekin hayoti va ijodi“ mavzusida tashkil etilgan sinfdan tashqari mashg'ulot shaklidagi bitiruv-malakaviy ishining tajriba-sinov darsi muhokamasi

ESHITILDI: Yig'ilish raisi, maktabi o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari A.Matniyazov darsning maqsadi va vazifalari haqida o'z fikrini bildirish uchun Q.Saburovaga so'z berdi.

Saburova Qunduz: Mening sinfdan tashqari darsni o'tkazishdan maqsadim o'quvchilarni badiiy kitoblar o'qishga undash, ularni badiiy asarlar mutolaa qilishga qiziqtirish edi. O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish, ijodiy fikrlash qobiliyatini o'stirishdan iborat. Yangi mavzu bayonida o'quvchilar bilan guruhlarda ishladik, ular topshiriqlarni tez va samarali bajardilar. Dars jarayonida mavzuga mos „Insert“, „Ikki varaqli kundalik“, „Tanqidiy fikrlash“ kabi metodlarni qo'lladim.

SO'ZGA CHIQDILAR:

Kalillayeva Nargiza: O'qituvchi darsni juda yaxshi tashkil qildi. O'quvchilarni darsga qiziqтира oldi. Ko'rgazma qurollardan unumli foydalandi. Ko'proq ma'lumot berishga harakat qildi. Darsda o'qituvchi o'z maqsadiga erisha oldi, deb o'ylayman.


Abdurasulova Nigora: O'quvchilar ham darsda faollik bilan harakat qilishdi. Dars ko'rgazmaliligi ham yaxshi tashkil etilgan. O'quvchilar adibning hayoti va ijodi haqida yetarli ma'lumotlarga ega bo'ldilar. Qo'llanilgan metodlar mavzuga mos keladi, deb o'ylayman.

Aytniyazova Nargiza: Q.Saburova mavzuga doir qiziqarli ma'lumotlar berdi. O'quvchilarning darsga befarq bo'lganlarini sezmadim. Darsda o'qituvchi ko'rgazmali qurollarni samarali ishlatdi. Umuman, „Rashod Nuri Guntekin hayoti va ijodi“ga bag'ishlangan darsdan Q.Saburova unumli foydalandi. Bu darsning yutug'idir. Men darsning tashkiliy qismidan, uning mazmun-mohiyatidan qoniqdim.

QAROR QILINDI:

O'zbek tili fani amaliyot o'qituvchisi Saburova Qunduzning 10- „V“ sinfda „Rashod Nuri Guntekin hayoti va ijodi“ mavzusida o'tgan bitiruv-malakaviy ishining tajriba-sinov darsi „a'lo“ deb baholansin.

Yig'ilish raisi:



A.Matniyazov

Kotiba:



N.Abdurasulova

Taxiatosh tumani XTB ga qarashli 3-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining o'zbek tili fani amaliyot o'qituvchisi Saburova Qunduzning 2021- yil 21-aprel kuni 10-,,V“ sinfda „Rashod Nuri Guntekin hayoti va ijodi“ mavzusida o'tgan bitiruv-malakaviy ishining tajriba-sinov darsi jarayonidan LAVHALAR

